



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**Filologiya fakulteti
5A 120102 - LINGVISTIKA (o'zbek tili)
yo'nalishi magistratura
bitiruvchisi**

Turdiyeva Gulbahor Taxirovnaning

O'zbek tilida nomlovchi birliklar tadqiqi

mavzuidagi

magistr darajasini olish uchun tayyorlagan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:

f.f.d.H. Usmonova

Namangan-2016

MUNDARIJA

Kirish.....	3
--------------------	----------

I BOB. SEMANTIKA VA UNING TADQIQI

1.1. Lingvistik semantika va uni o'rganish muammolari.....	6
--	---

1.2. Lingvistik semantikaniig asosiy yo'nalishlari.....	9
---	---

II BOB. NOMLOVCHI BIRLIKLARNING MAZMUNYIY TUZILISHI

2.1. Nomlovchi birliklarning semantik tabiati haqida.....	12
---	----

2.2. Nominativ birliklarda leksik ma'no tiplari.....	16
--	----

2.3. Leksik birliklarning pragmatik ma'nosi.....	34
--	----

III BOB. NOMLOVCHI BIRLIKLAR MA'NO TARKIBINING TAHLILI MASALALARI

3.1. Nomlovchi leksemalarning denotativ va konnotativ semalalari..	44
--	----

3.2. Lug'aviy qatorlarni ajratishning ekstralingvistik asoslari.....	52
--	----

3.3. Lug'aviy qatorlarni ajratishning lisoniy asoslari.....	55
---	----

3.4. Holat bildiruvchi sifat leksemalarning ma'no tarkibi masalalari..	61
--	----

Umumiy xulosalar.....	72
------------------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	75
--	-----------

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmokda". O'zbek tilshunosligida lingvistik birliklarning struktur, formal-funksional xususiyatlari tadqiqi masalasi ham ona tilimizning yangi-yangi qirralarini ko'rsatib berishga xizmat qiladi.

Leksema o'zining eng muhim vazifasi bo'lgan voqelikdagi, inson ongidagi narsa-buyum, belgi, xususiyat va mohiyatlarni atashni semema orqali bajaradi. Sememaning ongimizdagi tushunchalar bilan borliqdigi leksemaning atash, nomlash, nominativ birlik sifatida vazifasini bajarishga imkon beradi. Semema ongimizda mavjud bo'lgan turlicha tushunchalar bilan uzviy bog'lanadi. O'z vaqtida prof. I.Qo'chqortoev to'g'ri ta'kidlaganidek, "leksik ma'no (semema) yaxlit butunlik emas, balki tarkibli hodisa ekanligining kashf etilishi hozirgi davr tilshunosligining eng yirik muvaffaqiyatlaridan biridir". Bu muammoning to'g'ri hal qilinishi esa hozirgi zamon O'zbek tilshunosligining semasiologiya, leksikografiya, onomasiologiya va boshqa qator sohalari rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. SHu jihatdan tanlangan mavzu bugungi tilshunoslik nuqtai nazararidan dolzarblir.

BMIning o'rganilish darajasining qiyosiy tahlili. Mazkur mavzuni yoritishda A.G`ulomov, G`.Abdurahmonov, M.Asqarova, A.Nurmonov, N.Mahmudov va boshqalarining xizmatlarini qayd etib o'tish lozim. Biroq shuni aytish kerakki, aynan bizning mavzuimiz doirasida tilshunos olimlarimizning yo`l –yo`lakay tarzda aytib o'tgan fikrlari mavjud xolos. Shu ma'noda ularning bu

boradagi xizmatlarini unutmagan holda ayrim masalalarga to'xtalmay o'tganligini ta'kidlamoqchimiz.

Ishning maqsadi va vazifalari. Ishning maqsadi jahon va o'zbek tilshunosligida nominatsiya jarayoni va NBlarning hosil bo'lishi, ma'no tarkibi haqida bildirilgan fikrlarni o'rganib chiqib, lingvistik semantikaning asosiy yo'nalishlari, o'zbek tilida NBlarning ma'no tarkibi, ularning semantik strukturasi ochib berishdan, holat bildiruvchi sifat leksemalarning ma'no xususiyatlarini tahlil qilishdan iboratdir. SHundan kelib chiqib quyidagi vazifalarning amalga oshirilishi ko'zda tutilgan:

- lingvistik semantika va uni o'rganish muammolarini aniqlash;
- Lingvistik semantikaniig asosiy yo'nalishlari haqidagi fikrlarni tahlil qilish;
- Nomlovchi birliklarning semantik tabiatini tahlil qilish;
- Nominativ birliklarda leksik ma'no tiplari.ni ajratish;
- Nomlovchi leksemalarning denotativ va konnotativ semalalarini ajratish;
- Lug'aviy qatorlarni ajratishning ekstralingvistik asoslarini o'rganish;
- Lug'aviy qatorlarni ajratishning lisoniy asoslari aniqlash.

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy yangiligi. Mazkur ishda o'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti ochildi. Leksema sememasining semik tarkibi aniqlandi. Leksemaning pragmatik vazifasi o'rganildi.

Ishning metodologiyasi va metodlari. Tadqiqotning metodologik asosini til va tafakkur birligi, ob'ektiv borliq va lisoniy belgi munosabati, til evolyutsion rivoji kabi lisoniy qoidalar tashkil qiladi. Mavzuni yoritishda hozirgi kunda tilshunoslikda keng tarqalgan tavsiflash, zidlash, analiz va sintez, komponent tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Ishning sinovdan o'tishi. Dissertatsiya Namangan davlat unversiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi yig'lishi (2016-yil 25-aprel) da muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Dissertatsiya natijalarining e'lon qilinganligi. Ilmiy tadqiqot ishining asosiy mazmuni NamDU ilmiy to'plamlarida e'lon qilingan 4 ta maqolada o'z aksini topgan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Ish ishning umumiy tavsifi, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 77 sahifani tashkil etadi.

I bob. Semantika va uning tadqiqi

1.1. Lingvistik semantika va uni o'rganish muammolari

"Semantika" so'zi yunoncha *semanikos* va frantsuzcha *semantique* so'zlaridan olingan bo'lib, "ifodalovchi" degan ma'noni bildiradi. Tilshunoslikda bu so'z ma'noda qo'llanadi: a) til birliklarining mazmun, ma'no tomoni; b) lug'aviy birliklarning semantik tuzilishi va u bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchi soha - semasiologiya. Bundan ko'rinadiki, tilshunoslikda semantika fani til birliklarining mazmun tomonini o'rganadi va tadqiq etadi. "Semantika" atamasini tilshunoslikka ilk bor 1897 yilda frantsuz tilshunoslari tomonidan kiritilgan bo'lib, XIX asr oxiriga kelib lingvistik semantika mustaqil fan sifatida shakllangan.

So'z va uning lug'aviy hamda grammatik ma'nolarini o'rganish semantikaning asosiy vazifalaridan biridir. Hozircha tilshunoslik fanida so'zning barcha olimlar tan oladigan umumiy ilmiy ta'rifi mavjud emas. Akademik A.Xojiev tomonidan tuzilgan lug'atda so'zga quyidagicha ta'rif berilgan: "Leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko'rinishi. O'z tovush qobig'iga ega bo'lgan, ob'ektiv narsa-hodisalar haqidagi tushunchani, ular o'rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatlarni ifodalay oladigan, turli grammatik ma'no va vazifalarda qo'llanadigan eng kichik nutq birligi" so'zdir.

Ma'lumki, til strukturasida bir-biridan yaqqol ajraladigan yarusi (sath)lardan biri nomlash birliklari (nomlovchi birliklar - NB), ikkinchisi esa xabarlash birliklari (xabarlovchi birliklar - XB) yarusi (sathi)dir. Agar biz bu umumiy semantik qoidani til birliklari terminida ifoda etsak, NBlar yarusi tilning so'zlar (leksik birliklar) sathidan, xabarlovchi birliklar yarusi esa gaplar sathidan iborat bo'lishi ma'lum bo'ladi. Bu nuqtai nazardan so'zning asosiy funktsiyasi nomlash, atash funktsiyasi bo'ladi. So'zning gapdagi vazifasi uning mana shu nominativ funktsiyasi bilan belgilanadi So'z muayyan grammatik shaklga ega bo'lgani uchun nomlash vazifasini

bajarmaydi, aksincha, soʻz nominativ funktsiyaga ega boʻlgani uchun gapda muayyan grammatik shaklda keladi.

Xullas, prof.SH.Rahmatullaevning taʼkidlashicha, “leksemaning mazmun jihati ancha murakkab boʻlib, uning asosini leksik maʼno tashqil qiladi. Leksik maʼnoning uzvlariga ideografik semalar deyiladi. Leksik maʼnoning tarkibida turkumlik semasi ham qatnashadi. Leksik maʼnoni qurshab turuvchi betaraf, ijobiy yoki salbiy baho semasi ham mavjud boʻladi va boshqalar... leksema bir leksik maʼnoli boʻlsa (monosemema boʻlsa), u bitta til birligiga teng; agar koʻp maʼnoli boʻlsa (polisemema boʻlsa), har bir leksik maʼnoni (sememali) alohida til birligiga teng deb qarash lozim”.

Tilning NBlari soʻzning oʻzidagina iborat emas. Soʻz bilan bir katorida soʻz birikmasi ham tilning NBlari qatoriga kiradi. Nominativ funktsiya qisman gapga ham xos. Funksional tomondan soʻzning xususiy, oʻziga xos belgisi uning NBlar qatorida tutgan oʻrni bilan belgilanadi. Soʻz tilning minimal NBi sanaladi. Bundan soʻz maʼnoli qismlarga boʻlinmas ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak, chunki soʻz bir morfemadan (oʻzak morfemadan) tashkil topgani kabi, bir qancha morfemalar qoʻshilmasidan ham tashkil topishi mumkin: ish+chi., uyin+choq+lar , top+il+ma+di kabi. Lekin morfemalar qoʻshilmasi (soʻz) bilan soʻzlar birikuv (soʻz birikmasi) oʻzaro farq qiladi. Soʻzning tarkibiy qismlari nominativ funktsiyaga ega boʻlmaydi. SHuning uchun ular uzvlari alohida tilning NBlari qatoriga kirmaydi. Soʻz birikmasi esa soʻzlardan tashkil topadi: uyda qoldi, uzoq yurdi, keng dala, birinchi muallim kabi. Boshqacha qilib aytganda, soʻz birikmalarining komponentlari NBlardan iborat boʻladi. SHuning uchun soʻz birikmasi tilning minimal NBi (soʻz) hisoblanmaydi.

Soʻz birikmasi bilan soʻzning bir-biriga munosabati toʻgʻrisida gap kettanda, ular orasiga keskin chegara koʻyib boʻlmasligini alohida koʻrsatib oʻtish zarur, chunki soʻz birikmasi qoʻshma soʻz hosil boʻladigan asosiy manbalardan biridir: katta qoʻrgʻon - Kattaqoʻrgʻon, oq daryo - *Oqdaryo*, *makka(ning) joʻxori(si)* - *makkajoʻxori*, *muzning yorilishi* - *muzyorar*, *marjon(dan) buloq*- *Marjon buloq* kabilar. Soʻz birikmasi bilan qoʻshma soʻz orasida ikki xil farqlanadigan hodisalar

ko'p uchraydi. Aslini olganda, tilshunoslikda ham so'z nazariyasining eng zaif nuqtalaridan biri ham ana shunday ikki xil talqinga yo'l qo'yadigan birikmalar masalasidir. Gap shundaki, O'zbek tilida qo'shma so'z bilan so'z birikmasining grammatik shakllanishi tamoyilda ko'pincha o'zaro farqlanmaydi. Xuddi qo'shma so'zda bo'lgani kabi, so'z birikmasida ham formal ko'rsatkichlar komponentlarga alohida-alohida emas, balki butun birikmaga qo'shiladi. Masalan: rus tilida *beloruchka* qo'shma so'z, NB, *belaya ruchka* so'z birikmasi. Bu birliklarning turlanishi, grammatik jihatdan o'zgarishi o'zaro keskin farq qiladi: *beloruchku*; *beloruchke*, *beloruchkoy*; *beluyu ruchku*, *beloy ruchke*, *beloy ruchkoy* kabilar. Bu birliklarning o'zbekcha ekvivalentlari grammatik shakl nuqtai nazaridan o'zaro farqlanmaydi: *oq bilak* (tannoz), *oq bilak* (bilagi oq) kabi. Bu birliklarning kelishiklar va egalik qo'shimchalari bilan turlanishi bir- biridan mutlaqo farq qilmaydi: *oq bilakning*, *oq bilakni*, *oq bilakka*, *oq bilaqda*, *oq bilaqdan*; *oq bilagim*, *oq bilaging*, *oq bilagi*, *oq bilagimiz*, *oq bilagingiz*, *oq bilaklari* kabi. Bu ikki birlik orasidagi farq ularning ifodalovchisida emas, balki ularning mazmun planida, ularning ma'no xususiyatidadir: *bilagi oq* ma'nosidagi *oq bilak* erkin birikma bo'lsa, *tannoz* ma'nosidagi *oq bilak* idiomatik birikmadir. Bu birikma ikki so'zning birikuvi sifatida emas, balki yaxlit, bir butun birlik (so'z, NB) sifatida tushuniladi. Rus tilidagi *beloruchka* ham, o'zbek tilidagi *oq bilak* (tannoz) ham idiomatik xarakterga ega. Bulardan *beloruchka* birligining yaxlitligi formal ko'rsatkichlar bilan mustahkamlangan, lekin *oq bilak* (tannoz) bunday ko'rsatkichlar bilan mustahkamlangan emas. SHuning uchun rus tilidagi *beloruchka* birligini qo'shma so'z, o'zbek tilidagi *oq bilak* (tannoz) birligini esa ibora sifatida baholash o'rinlidir. Bu keltirilgan dalil shuni ko'rsatadiki, tilning lug'aviy birliklari, NBlar faqat so'zlar bilangina chegaralanmaydi. Tilning NBlari doirasiga rasman frazeologizmlar ham kiradi, chunki iboralarning ma'lum qismi nominativ funktsiyani bajaradi. Tilimizdagi yumshoq supurgi (*laganbardor*), qora oltin (*neft*), zangori olov (*gaz*), zangori ekran (*televizor*), oq oltin (*paxta*), ammamning bo'zog'i (*lapashang*) kabi frazeologizmlarda farqlash funktsiyasi ularni muayyan predmet yoki xarakter-xususiyat ma'nosini ifodalashdek imkoniyatini tamomila cheklab qo'ymaydi. Masalaga shu nuqtai

nazardan qaraganda, frazeologizmlarning nominativ xususiyatiga doir A.V.Kuninning quyidagi fikri xarakterlidir: "Predmetlar va jarayonlarning ekspressiv xarakteristikasi ko'pgina frazeologizmlarga xosdir, lekin bu xususiyat ularning nominativlik xususiyatini yo'qotmaydi, faqat ularga ma'lum uslubiy yo'nalish bag'ishlaydi". Lingvistik semantika sohasi mana shu masalalarni ham tadqiq etish bilan shug'ullanadi.

Bundan ko'rinadiki, lingvistik semantika fanining asosiy vazifasi til birliklarining mazmun tomonini tadqiq etishdir. Shunga binoan tilshunoslik fani til birliklarining ma'no tomoni uning asosiy va muhim tomoni deb hisoblaydi.

1.2. Lingvistik semantikaning asosiy yo'nalishlari.

Keyingi yillarda olimlar lingvistikaning semantika sohasining bir qancha yo'nalishlarini bir-biridan farqlashga harakat qilmoqdalar. Masalan, L.A.Novikov asarlarida semantika fani logik semantika, falsafiy semantika, kommunikativ semantika kabi turlarga ajratilgan.

1. Strukturaviy semantika. Bu yo'nalishning asoschilari F.de Sossyur, L.Elymslev, Y.Trir, L.Tenyer, M.M.Pokrovskiy kabi olimlardir. Leksemalar orasidagi sistem aloqalarni, leksik-semantik paradigmaga semantik majmualarning boshqa tillarini tadqiq etish strukturaviy semantikaning asosiy vazifasi sanaladi. Semantikaning bu yo'nalishi o'z taraqqiyoti davomida formalizm va relyativizm kabi g'ayri falsafiy oqimlar ta'siridan xalos bo'ldi hamda sistem tilshunoslikning muhim tarkibiy qismi bo'lgan sistem semantikaning shakllanishiga mustahkam zamin hozirladi.

2. Interpretatsion (talqiniy) semantika. Bu yo'nalish amerika olimi I.Xomskiy tomonidan asoslangan generativ grammatikaning tarkibiy qismi sifatida o'tgan asrning 50- yillarida vujudga kelgan edi. Bu sohaning ilmiy-nazariy jihatdan asoslanishiga keyinchalik D.Katts, D.Fedor, P.Postal singari olimlar ham katta hissa qo'shdilar. Mazkur semantik sohaning asosiy vazifasi til birliklarining ichki strukturasini faqat mazmun tomondan tadqiq etishdir. Bunday tadqiqotlar ichida sintaktik (formal) va morfologik komponentlarni semantik jihatdan o'rganishga doir

yaxshi natijalarga erishildi. Keyinchalik U.Veynrayx tadqiqotlari bilan interpretatsion semantika o'zining mustaqil taraqqiyot yo'nalishiga ega bo'ldi.

3. Kontseptual semantika. Bu yo'nalishning asosiy tushunchalari va g'oyalari U.CHeyfning «Ma'no va til strukturasi» nomli asarida atroflicha bayon qilingan. Olimning talqiniga ko'ra, boshlang'ich semantik va fonologik fazalar orasida nutqiy faoliyatning shakllanishi bilan aloqador boshqa fazalar (jarayon) ham bo'lishi tabiiy. Bu esa inson nutqiy faoliyatining undagi NBlar shakllanishning ko'p bosqichli, murakkab jarayon ekanligini ko'rsatadi. Kelgusida konseptual semantika muammolari tili va boshqa turkiy tillar materialida maxsus tadqiq etilishi lozim deb hisoblaymiz.

4.Semantik tipologiya. Bu soha tilning mazmun plani birliklarini tipologik tadqiq etish bilan shug'ullanadi. Mazmun plani deyilganda tilning semantik strukturasi tushunilishini yuqorida ta'kidlagan edik. Tillarning tipologik jihatdan qiyoslash ularning semantik strukturasi qiyoslashni ham o'z ichiga oladi. Semantik qiyoslash semantik tipologiya asosida yuzaga keladi. Semantik tipologiya semantik kategoriyalarning ifodalanishidagi mushtaraklikni abstraklashtiradi ma'lum tushunchalarning turli tillar sistemasi ifoda plani birliklari vositasida talqin etilishini o'rganadi. Turli tillar lug'atlarini tuzishda bir tildan ikkinchi tilga matnlarni tarjima qilishda semantik tipologiya va qonunlarining amaliy ahamiyati juda katta ko'rin tutadi. Bu jihatdan tilshunos J.B.Bo'ronovning "Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi " nomli asarida qayd qilingan quyida fikri xarakterlidir: "semantik tipologiya mazmun plani birliklarini tipologik tadqiq qiladi. Mazmun plani deganda tilning semantik strukturasi tushuniladi. Tipologik qiyoslash semantik qiyoslashni ham o'z ichiga oladi. Semantik qiyoslashdan semantik tipologiya yuzaga keladi". Tillar har xil bo'lsa ham, sistemasidagi ma'lum semantik kategoriyalarni ifodalovchi so'zlar muayyan guruhlarni tashkil etadi. Semantik tipologiyada ba'zi kategoriyalar umumiy, ba'zilari esa ayrim tillargagini hos bo'ladi. Bu esa semantik tipologiya semantik maydonlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Masalan, aka-ukalik va opa singillik, jins tushunchasi turli tillarda farqli xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan: indonez tilida ham maldavan tilida ham

“uka” va “singil” tushunchalari birgina *ade* so’zi bilan ifodalanadi. Amma va Hola so’zlari ifoda etilishi esa o’zbek va lotin tillarida bir-biriga o’xshaydi.

O’zbekcha	lotincha
xola	matertera
amma	amita

Har bir tushuncha bir tildan ikkinchi bir tilga semantik jihatdan o’sha tildagi nominativ birlikka mos keluvchi qo’shma so’zlar, so’z birikmalari vositasida yoki ayrim tushuntirish, izohlar yordamida tadrijiy tarjima qilinadi. Masalan, o’zbek tilidagi “aka” qarindoshlikni ifodalovchi so’zi rus tiliga *starshiy brat*, “uka” qarindoshlik atamasi esa *mladshiy brat* deb tarjima qilinadi. Ammo katta akam, kichik akam, katta ukam, kichik ukam singari NB larni rus tiliga faqat tushuntirish, izohlash yo’li bilan ifodalash mumkin.

SHuni ham inobatga olish mumkinki, har bir tilda o’sha tilning sohibi hisoblangan xalqning o’zi ko’proq mashg’ul bo’lgan xo’jalik ishlab chiqarish sohalari hamda uni o’rab turgan tabiiy muhit (iqlim, hayvonot va o’simlik olami, tog’, cho’l, saxro, suv va hokazolar) ga aloqador nominativ birliklar – so’zlar, atamalar, iboralar boshqa tillarga nisbatan ko’proq yoki kamroq qo’llanilishi mumkin. Masalan, suv o’lkasi bo’lmish buyuk Britaniyada tabiatning bu ne’mati, suv xo’jaligi, baliqchilik bilan bog’liq tushunchalarni ifodalaydigan NBlar ko’p bo’lishi o’z-o’zidan ma’lum. Ingliz tilida *vater* “suv” so’zidan yasalgan ko’chma ma’noli birikmalar, idiomalar, maqol va matallar ko’p uchraydi. Birgina misol Vil’yam SHEkspirning “Hamlet” tragediyasida daniya shahzodasi - Poloniyni "baliqfurush" deb ataydi: Poloniy: Siz meni taniysizmi?

Hamlet: Juda yaxshi taniyman. Siz baliqfurush.

Ko’pgina tilshunos va tarjimashunos olimlar tragediyada keltirilgan (baliqfurush) so’zi qanday ma’noda kelganini aniqlashga uringanlar. Ma’lum bo’lishicha, buyuk dramaturg yashagan zamonlarda inglizlarda "baliqfurush" so’zining "qo’shmachi" degan ma’nosi ham bo’lgan ekan. Demak, ayni bir so’z bir tilda (ingliz tilida) o’zining asosiy lug’aviy ma’nosidan tashqari majoziylik kasb etgan bo’lsa, boshqa xalqlarning tillarida (ruslarda - *torgovets* *рыбой*, o’zbeklarda -

baliqfurush - baliq,. sotuvchi, baliq bilan savdo qiluvchi) bunday xususiyat ko'zga tashlanmaydi. Tilshunos olim H.Jabborov birgina "suv" leksemasining bosh leksik ma'nosi asosida hosil qilingan o'ttizga yaqin hosila ma'nolarini komponent tahlil metodi orqali aniqlaydi.

SHunisi e'tiborliki, xatto genetik jihatdan o'zaro yaqin bo'lgan turkman va o'zbek tillarida ham ayrim hayvon nomlarining majoziy timsol sifatida qo'llanilishida uslubiy farqlar ko'zga tashlanadi. Masalan, o'zbek va turkman tillarida qo'chqor (gach) nominativ leksemasi umumiy ijobiy ma'noda qo'llanishidan tashqari, turkman tilida hatto go'zal ma'shuqani ifodalash uchun ham qo'chqorga nisbat berish hollari uchraydi.

Bu ashrat chog' ichinde,

Boz gach kabi ichinde,

Andali san bog' ichinde,

Soz ochmayin ovozingdan

Tarjimasi:

Bu ayshu ishrat ichinda,

Bo'z *qo'chqorday* tog' ichinda,

Bir bulbul san bog' ichinda,

So'z ochmayin ovozingdan.

5.Kommunikativ semantika. Bu soha o'z navbatida struktural semantika, interpretatsion semantika, kontseptual semantika singari yo'nalishlarni umumlashtirish, yaxlit g'oya sifatida tasavvur etish imkonini beradi. Tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichida kommunikativ sementika muammolariga alohida e'tibor berilmoqda.

Semantik tadqiqot va uning metodlari.

Ma'lumki an'anaviy tilshunoslik lisoniy birliklarni faqat shakliy tomonini o'rganishga katta e'tibor qaratgan edi. Bunday qarash, tilga semiotik nuqtai nazardan yondashish, belgini faqat shakldan iborat deb hisoblash natijasida yanada kuchaydi.

Til har biri yopiq tizim sifatida qaraladigan leksika, grammatika, fonetika kabi qat'iy sathlarga ajratildi. Til birliklarini o'zi ifodalayotgan ob'ektiv borliq bilan

munosabati tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qoldi. Keyinchalik tilni, uning birliklarini bunday o'rganish bir yoqlama ekanligi, shaklni ma'nodan uzib bo'lmasligi aytib o'tildi. Natijada til birliklarining ma'no tomoniga, mazmun planiga e'tibor kuchaydi. Bu esa o'z navbatida tilshunoslikda semantik tadqiqotlar semantikasini takomillashtirishga olib keldi. Hozirgi vaqtda tilshunoslikda qo'llanilayotgan semantik tadqiqot metodlari juda xilma xildir.

Tilshunoslikda semantik tadqiqotlarning kuchayishi natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, til birliklarining shakl va mazmun tomonidan tavsifi ham tilni to'liq izohlash uchun yetarli emas. Til birliklarini matn (kontekst), nutq vaziyati bilan bog'lab o'rganishgina ularning ma'nosini to'g'ri tushunishda katta imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Bu esa til birliklarining pragmatik tomoniga qiziqishni kuchaytiradi.

Axborotning to'g'ri tushunilishi uchun so'zlashuvchilarning til haqidagi bilimidan tashqari, tinglovchining olam haqidagi bilimi, o'sha gap qo'llanayotgan paytdagi ijtimoiy holat haqidagi bilimi, so'zlash jarayonida so'zlashuvchilar ruhiy holati haqidagi bilimi va boshqa bilimlarni ham qo'shish kerak. Bunday bilimlarni aniqlash uchun esa, xilma xil usul va metodlardan foydalaniladi. Axborotni tushunish jarayonida yuqoridagi bilimlarning barchasi teng ishtirok etadi. SHuning uchun faqat bu bilimlarning o'zaro munosabatini hisobga olgandagina biz nutqiy jarayonning semantik mohiyatini anglashga erishgan bo'lamiz. Ana shu amaliy ehtiyoj natijasida tilshunoslikda semantika va pragmatika vujudga keldi.

Semiotikaning asoschilaridan biri bo'lgan CH.Morris bu fanni uchga bo'lib o'rgangan edi:

- 1.Semantika- belgining, jumladan, NBlarning borliq ob'ekti bilan munosabati haqidagi ta'limot;
2. Sintaktika belgining belgi bilan munosabati haqidagi ta'limot;
3. Pragmatika - belgining so'zlovchi bilan munosabati haqidagi ta'limot¹.

¹ Нурмонов А., Махмудов Н. ва бошқ. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Тошкент,

Pragmatikaga semantika masalalarini o'rganish ko'chaygan bir paytda e'tibor berilishi bejiz emas, chunki semantikaning tekshirish ko'lemi hozirgi davrga kelib g'oyat kengayib ketganligi sababli uni biroz yengillatishga ma'noning matn (kontekst) bilan borliq qismidan xalos qilishga to'g'ri keldi. Natijada tilshunoslikda pragmatika semantikadan ajralib chiqib, o'ziga xos tadqiqot metodlariga ega bo'ldi, shu asosda lingvopragmatika sohasi vujudga keldi.

SHunday qilib, lingvistik semantikada bir qancha usul va metodlardan foydalaniladi. Bu metodlar oddiy, intuitiv kuzatish usulidan tortib introspektiv, matematik metodlarga bo'lgan juda katta oraliqni tashkil etadi. Hozirgi vaqtda tilshunoslikda olib berilayotgan semantik tadqiqotlarning asosiy vazifasi til birliklarining, jumladan NBlarning barcha imkoniyatdagi aloqadorligini, har xil semantik maydonlar, JICG (leksik-semantik guruhlar) tarkibi va strukturasini chuqur va asosli o'rganishdan iboratdir. Semantik tadqiqotlarda keng tarqalgan semantik maydon nazariyasini o'rganishda oppozitiv, komponent va kontekstologik tahlil usullaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib kelmoqda. Bu metodlarning har biri o'z xususiyatlariga ega bo'lib, ulardan oqilona va unumli foydalanish semantik tadqiqotlarning muhim jihatlari aniqlashga imkon beradi. Bundan tashqari semantik tadqiqotlarda, ayniqsa, NBlarning ma'no tarkibini tahlil qilishda transformatsion, psixolingvistik matematik tahlil, bevosita ishtirokchilarga ajratish singari metodlardan ham foydalanish mumkin.

Sistem tahlilda til birliklari tushunchasi bilan birga munosabat tushunchasi ham juda katta ahamiyatga ega. Chunki har qanday tizimda har bir birlikning mohiyati shu birliklarning o'zida emas, balki bu birliklar orasidagi munosabatlar orqali aniqlanadi. Til birliklari, jumladan, NBlar orasida asosan o'xshashlik (paradigmatik), pog'onali (ierarxik) va qo'shnichilik (sintagmatik) munosabatlar o'zaro farqlanishi tilshunoslikda aniq isbotini topgan.

NBlar orasida quyidagi ziddiyat (oppozitsiya)lar ham o'zaro farqlanadi: a) teng qiymatli (ekvipolent) ziddiyatlar: *kitob - daftar, ota - ona, qiz — o'g'il, ona - bola* kabi NBlar orasida o'zaro qarama-karshi kuyilgan, teng qiymatli ziddiyatlar mavjud; b) mutanosib (proportsional) ziddiyatlar: "*erkaklik*" va "*urg'ochilik*" belgisiga ko'ra *qiz -*

yitit, er - xotin, ona — ota, kampir - chol, opa - aka, megajin - qoban, sigir - xo'kiz, baytal - ayg'ir kabi NBlar o'zaro mutanosibdir, chunki bunday ziddiyatlar ayni shu belgi ("erkaklik" va "urg'ochilik" belgisi) asosida tashkil topgandir; v) darajali (gradual) ziddiyat kamida uchta NBlar orasida bo'ladi va ular muayyan bir belgi-xususiyatning darajasiga - oz-ko'pligiga ko'ra o'zaro qarama- qarshi qo'yiladi: xujra - kulba - uy - hovli - qasr ~ koshona; ko'chat - nihol - daraxt kabilar; g) noto'liq (privativ) ziddiyatlarda bir belgi doimiy, o'zgarmas bo'lsa, qolgani o'zgaruvchi, noto'liq xususiyatga ega bo'ladi: so'z - qo'shma so'z - ibora (frazologizm); unli tovush- sonor undosh tovush - shovqinli undosh tovush kabi atamalar orasida shunday noto'liq ziddiyatlar ko'zga tashlanadi.

SHuni unutmaslik zarurki, NBlar orasidagi noto'liq ziddiyatlar mohiyatini mantiqiy va falsafiy jihatdan ochishda an'anaviy mantiq (formal logika) ning uchinchisi istisno qonununiga emas, balki-dialektik mantiqning oraliq uchinchi konuniga amal qiladi, chunki oraliq uchinchi qonunida o'zaro qarama-qarshi qo'yilgan hodisalar birlashadi. SHunta ko'ra, til birliklari, jumladan, NBlar orasidagi bog'lanishni, davomiylikni ta'minlashda noto'liq(privativ) ziddiyatlar va oraliq uchinchilarning ahamiyati juda kattadir.

I I bob. Nomlovchi birliklarning mazmuniy xususiyatlari

2.1. Nomlovchi birliklarning semantik tabiati haqida

Nom va borliq masalasi qadimgi zamonlardan buyon turli munozaralarga sabab bo'lib keldi. Chunki borliqda mavjud bo'lgan narsalar va hodisalar tilimizda ong orqali o'z ifodasini topdi. Demak, denotat (ongda aks etgan borliq) - signifikat (borliqdagi narsa-hodisalarning ongdagi umumlashgan obrazi) – nom o'zaro dialektik bog'liqdir.

Bu masala ikki yo'nalishda o'rganildi. Birinchi yo'nalish tarafdorlari borliq bilan nom o'rtasida o'zaro motivasiya –bog'lanish borligini e'tirof etsalar, ikkinchi yo'nalish tarafdorlari esa borliq va nom o'rtasida motivasiya-bog'lanish yo'q deb biladilar.¹ Bu yo'nalishlarning paydo bo'lishiga o'sha davrdagi falsafiy oqim ta'sir etdi.

Nom va borliq munosabati uzoq davr faylasularning, tilshunoslarning, psixologlarning tortishuviga sabab bo'ldi. Bu tortishuvlar natijasida nom va borliq munosabati o'ziga xos tarzda konkretlashib bordi. Haqiqatan, til paydo bo'lgan dastlabki davrlarda nom bilan borliq o'rtasida bog'lanish-motivasiya mavjud bo'lgan. Keyinchalik bu bog'lanish shartlilik kasb eta boshlagan. Shu sababli nom va borliq munosabatiga bag'ishlangan tadqiqotlarning barchasida “bog'lanish - motivasiya” e'tirof etiladi. Biroq bog'lanish qaysi jihatdan ekanligida bir xillik yo'q. Shuning uchun keyingi davrda motivasiyaning qanday, qaysi jihatdan ekanligiga e'tibor kuchaydi. Natijada ko'pgina izlanishlarda so'zlarning etimologik tahlili orqali nom va borliq munosabatidagi bog'lanishni ochib berdilar. Ularning izlanishlarida ham dastlabki tilning paydo bo'lish davrida so'zlar va predmetlar o'rtasidagi aloqa erkin ekanligi ta'kidlanadi. Xullas, nom va borliq munosabati masalasidagi izlanishlarning keyingi davrida motivasiyaning

¹ Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972, 14-бет; Нурмонов А. Лисоний белги хусусиятлари ҳақида. – Андижон, 1992, 22-бет.

erkinligi va turlari izohlana boshlandi. Ularda motivasiya xilma-xil jihatdan bo'lishi hamda nom va borliqning o'zaro bog'lanishi erkin ekanligi ta'kidlanadi.

Belgi-so'zda moddiylik va axborot kabi ob'yektlar mavjud bo'ladi. Bu ob'yektlar o'zaro munosabatdorlikda birlashadi. Ular o'rtasidagi munosabatni professor A.Nurmonov shartli va sabab-natijali munosabatlarga ajratadi. Uningcha, shartli munosabatda ob'yektdagi belgi o'zaro shartlanish asosida yuzaga keladi, belgilashadi. Sabab-natijali munosabatda esa biri sabab, ikkinchisi natija sifatida, o'zaro bog'lanish asosida (tabiiy bog'lanish) yuzaga keladi. Shuning uchun shartli munosabat motivlanmagan-bog'lanmagan (tabiiy bog'lanmagan), sabab-natijali munosabat esa motivlangan tarzida izohlanadi¹. Bizningcha, nom va borliq munosabati o'zaro shartlangan, ya'ni tabiiy asosga qurilmagan yoki tabiiy asosi xiralashgan – motivlanmagan hamda tabiiy asosga qurilgan-motivlangan munosabatlar majmuasini birlashtiruvchi sistemadir. Bu sistemada lingvistik, ekstralingvistik omillar birgalikda ishtirok etadi va bir-biriga bog'liq holda munosabat aks ettiradi. Bu munosabat barcha fanlarda bo'lgani kabi tilda ham o'zaro qiyoslash jarayonidir. Nom qo'yish ham ob'yektiv, ham sub'yektiv asoslarga tayanadi. Ob'yektiv olamda mavjud bo'lgan predmetlar xossalriga, vazifasiga, xususiyatiga, xarakteriga ko'ra, ob'yektiv belgisiga ko'ra nom oladi yoki sub'yekt tomonidan o'zaro qiyoslash orqali nomlanadi.

Bilamizki, nom bu ob'yektiv olamda mavjud bo'lgan va inson ongida aks etgan predmetlar, belgilar, xususiyatlarning tildagi moddiy ifodalovchilari hisoblanadi. Bizni qurshab turgan moddiy olam esa borliq deyiladi.

Har bir lekemaning mazmuniy mundarijasi birlashtiruvchi va farqlovchi semalar munosabatidan tashkil topadi. Birlashtiruvchi sema bu leksemaning muayayn leksik-semantik guruhga mansubligini, farqlovchi sema esa ma'lum leksik semantik guruh tarkibidagi ushbu leksemaning o'ziga xosligini ifodalaydi. Natijada har qanday leksema umumiylik va xususiylik dialektikasini o'zida namoyon qiladi.

¹ Нурмонов А. Лисоний белги хусусиятлари ҳақида. – Андижон, 1992, 7-бет.

Garchi “leksemalarning umumiy ma’nosi” tushunchasi tilshunoslikda ko’p ma’noli leksemalar uchun keng tarqalgan bo’lsa ham, lekin u shu kungacha bir qator tilshunoslar tomonidan shubha ostida qarab kelinadi. A.A.Potebnyaning fikricha, shakliy jihatdan ham, moddiy jihatdan ham so’zning umumiy ma’nosi shaxsiy tafakkur maxsuli bo’lib, haqiqatda tilda mavjud bo’lishi mumkin emas¹.

Rus sistem leksikologiyani asoschilaridan biri M.M.Pokrovskiy ham so’zning alohida yashamasligi, uboshqa so’zlar bilan ma’lum shakl yoki ma’no umumiyliги asosida muayyan guruhlarni tashkil etishi, uning ana shunday semantik guruhlarga birlashishida asosiy ma’nosi bosh rolni qynashini ta’kidlagan edi⁴.

Leksik birliklarni sistema sifatida o’rganish, uning leksik sistemasidagi o’rnini belgilash boshqa leksik birliklar bilan munosabatiga suyanishni taqozo etdi. Natijada leksemaning mazmuniy mundarijasidagi semalar shu leksema bilan mu’lum munosabatda bo’lgan boshqa leksemaning mazmuniy mundarijasi bilan zidlanganda, ular o’rtasida umumiy (integral, birlashtiruvchi) va farqlovchi (differensial semalar) mavjudligi ma’lum bo’ldi. Masalan, *ota* va *ona* leksemalari faqat “jins” semasi bilan farqlanadi. Qolgan barcha semalar umumiy, integral sanaladi. Bu umumiy semalar ichida bittasi shu leksemani muayyan leksik semantik guruhga birlashtirish uchun xizmat qiladi. Ana shu umumiy, birlashtiruvchi sema gu leksik-semantik guruh (LSG) ning barcha a’zolari mazmuniymundarijasida takrorlanadi. Masalan, *ota*, *ona*, *opa*, *aka*, *uka*, *singil*, *o’g’il*, *qiz*, *xola*, *amma*, *buvi* singari leksemalarning hammasida “qarindosh” semasi mavjud bo’lib, ular ana shu sema asosida “qarindoshlik” LSG siga birlashadi.

Leksema mazmuniy mundarijasidagi ana shu birlashtiruvchi sema boshqa leksemalarda ham takrorlanib, ularni bir paradigmaga birlashtiradi. Turli

¹ Потебня А.А.Из записок по русской грамматикеТ.I-II, М., 1958 ,с 43

⁴ Покровский М.М.Семосиологические исследования в области древних языков.-В кн. Избр.Работы по языкознанию. М., 1979. с. 82

leksemalarda umumiy semaning mavjud bo'lishi va uning har bir leksemaning mazmuniy mundarijasida ularni bir paradigma birlashtirishga asos bo'ladi.

Leksik ma'noning kombinatorligi hozirgi kunda deyarli barcha tilshunoslar tomonidan e'tirof etildi va leksemaning ma'no komponentlarini ajratishga qaratilgan komponent tahlil metodi lingvistik tadqiqotning eng universal va keng tarqalgan metodiga aylangan.

Leksik ma'no komponentlari haqidagi tushuncha hozirgi kunda tilshunoslikda keng tarqalgan bo'lsa ham, lekin bu tushunchaning nomlanishi xilma-xillik uchraydi; "semantik belgilar", "semantik yo'naltiruvchilar", "elementar qiymat", "leksik-semantik variant", "sema"so'ngi davrlari bu tushuncha uchun "sema" atamasi keng qo'llanmoqda.

Keyingi davrlarda yuzaga kelgan tilga tizim sifatida yondashuvchi nazariyalarda til belgilar sistemasi sifatida izohlanmoqda. Shu jihatdan nom va borliq masalasini "belgi va u ifodalovchi predmet" munosabati asosida izohlash kuchaydi. Bunday yo'nalish tarafdorlari tilni semiotik sistema deb baholab, bu sistemada belgi asosiy element-uzv hisoblanadi,-degan qarashni ilgari surdilar. Belgini so'zga tenglashtirdilar. Lekin so'z o'ziga hos murakkab butunlik bo'lib, bir qancha belgilarni birlashtirishi mumkin. Shuning uchun V. fon Gumboldt, Shleyxer, Shteyntal, F.Fortunatov, Kurtene, F.de Sossyur kabi olimlar so'zni ikki tomonlama xarakterga ega bo'lgan belgi sifatida birlamchi xususiyat kasb etsa, uning o'zi va boshqa ob'yektlar, hodisalarga ishora qilishi, axborot berishi ikkilamchi xarakterini belgilaydi.

Umumiy sema ham darajalanish xususiyatiga ega. Masalan, leksemaning mazmuniy mundarijasidagi umumiy sema haqida baxs yuritilar ekan, leksemaning muayyan grammatik katigoriyaga xosligini ko'rsatuvchi o'rta umumiy sema, ya'ni kategorial sema leksema sememasi tarkibiga kirish-kirmasligi haqida turli xil fikrlar bildirilmoqda.

Akad. A.Hojiev leksema sememasi tarkibiga kategorial semaning kirmasligi, kategorial sema tushuncha bildirish, ana shu nuqtai nazaridan u samaning semik tuzilishidan tashqarida ekanligini bayon qiladi³.

E.V.Kuznesova esa leksemaning semik tuzilishi pog'onali (perarxik) ekanligiga suyanagan holda, semalarning semik tuzilishidagi roli turlicha ekanligini e'tirof etadi. Uning fikricha bittasi eng umumiy sema bo'lib, qolgan barcha semalar unga bo'ysunadi. Ana shunday eng umumiy sema "predmet", "harakat", "belgi" singari grammatik xarakterdagi semalar (grammemalar) sanaladi va bu umumiy semalar leksemalarni ma'lum leksik-grammatik sinflarga birlashtirish uchun asos bo'ladi⁴. Bunday sema E.Kuznesova tomonidan kategoriya grammatik, boshqa mualliflar tomonidan kategorial sema deb ham yuritilgan.

Eng umumiy semadan ko'ra konkretroq boshqalariga nisbatan umumiyroq sema-bu sof leksik sema sanaladi va ular o'rtasidan ham bosh, etakchi (umumiy) va unga ergashuvchi, tobe, xususiy semalarni ajratish mumkin. Masalan, sut, suv, benzin singari leksemalar tarkibida takrorlanuvchi va ularning barchasini bir sinfga birlashtirish uchun xizmat qiluvchi "suyuqlik" bosh etakchi, birlashtiruvchi sema, qolganlari esa farqlovchi, xususiy semalar hisoblanadi. Har bir leksemadagi sinfga xos bo'lgan umumiy sema birlashtiruvchi, bir integral sema ostiga birlashgan har bir leksemaning boshqasidan farqlab turuvchi o'ziga xos xususiy semalar farqlovchi semalar sanaladi. Xususan, *asal* leksemasining semik tuzilishi umumiydan xususiyga qarab tobe munosabat asosida quyidagi semalarni ajratish mumkin: 1) predmet (grammatik sema), 2) "narsa" (leksik-grammatik sema), 3)uyuqlik (kategorial-leksik sema), 4) quyuq, 5) shirin, 6) asalari hosilasi.

Ayrim leksemalarda potensial semalar ham uchraydiki, bunday semalar nutqiy jarayonda leksemaning ikkilamchi semantik vazifasi orqali yuzaga chiqadi. Masalan, asalning "yoqimlilik" (masalan, *asal bola*) semasi ko'chma ma'no orqali ifodalanadi.

³ Хожиев А. Ўзбек тили тил қурилишининг асосий бирлик.-Ўзб. тили ва адаб.,2007 . 4-сон

1. Кузнецова Э.В.Лексикология русского языка. М; 1982 с. 34

Shunday qilib, leksik ma'no mundariyasi grammatik, leksik-grammatik, kategorial-leksik differensial-leksik va qisman potensial semalar munosabati bir butunligidan tashkil topadi. Bundan tashqari uning tarkibida ba'zan konnotativ qismni tashkil etuvchi semasi emosional-baho semasi va uslubiy harakterdagi semalar ham qatnashining kuzatiladi¹.

Leksemaning mazmuniy mundarijasiga grammatik sema deb yuritiluvchi “predmet”, “harakat”, “miqdor” singari semalar kiradimi yoki yo'qmi degan muammo tilshunoslikda ko'pdan beri turli bahslarga sababchi bo'lib kelmoqda.

An'anaviy morfologiyada so'z formal nuqtai nazardan aniqlanadi. Shuning uchun ham muayyan grammatik ma'no bilan funksional bog'langan grammatik morfema bilan leksik morfema munosabatidan tashkil topgan butunlik so'z (so'z shakl) sanaladi. Bunday vaqtda so'zning barcha grammatik shakllari uchun o'zgarmas umumiy qism, ya'ni grammatik morfemadan holi qilingan qism leksema sanaladi. So'zning tarkibiy qismlarga ajratishda bu qism negiz deb ham yuritiladi. Leksemaga yuqoridagi nuqtai nazardan qaralganda, darhaqiqat, grammatik sema leksik ma'no mundarijasidan, ya'ni semema tarkibidan tashqarida qoladi.

Ayrim mualliflar bu fikrga e'tiroz bildiradilar va ma'no faqat so'zning negizi bilan chegaralanmasligini bayon qiladilar. Ularning fikricha, “grammatik ma'no leksik ma'nodan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi. Bu ma'no leksik ma'no tarkibiga uning bir kamponenti sifatida kiradi”¹

Ikkinchi yondashuvning dalili sifatida rus tilidagi *begu*, *beg*, *bega* so'zlarini keltiradilar. Agar leksik ma'no umumiyligi negiz umumiyligi bilan belgilanadigan bo'lsa, yuqoridagi so'zlar negiz umumiyligiga ega. Lekin turlicha leksik ma'no ifodalaydilar²

Darhaqiqat, leksemaning mazmuniy darajalanishida eng yuqori darajadagi abstraksiyalashgan integral asma (arxisema) mavjudki, ana shu arxisema

¹ Кузнецова Э.В. Ўша асар, с.35

² Тимофеев К.А. О некоторых вопросах словообразования Новосибирск, 1966, с. 16

² Кузнецова Э.В. Лексикология русского языка. М., 1982, с. 46

leksemalarni olamning lisoniy manzarasini belgilashda, olamni konseptual guruhlariga, mazmuniy maydonlarga ajratishda asos bo'ladi. Ana shunday arxisemalar qatoriga "predmet", "harakat" arxisemalari ham kiradi. Bunday arxisemalar so'zning grammatik ma'no ifodalovchi qismida emas, balki negiz qismida mavjud bo'ladi va u semalarning ierarxik toksonomiyasida tadqiqotchi uchun bilinib turadi.

Akad. A.Hojiev so'zdagi "predmet", "harakat" singari semalarning (arxisemalarning) leksemaga dahli yo'qligini, uning tushunchaga mansub ekanligini, shuning uchun so'z turkumlari tasnifi shunga asoslanishi va morfologiyaga dahldor ekanligini bayon qiladi¹

"Predmet", "harakat" semalarini tushuncha ifodalash nuqtai nazardan, leksik ma'noga dahldor emas, deb bo'lmaydi. Chunki tushuncha va leksik ma'no o'zaro uzviy bog'liq.

Ularning tutash nuqtalari mavjud. Faqat ularning biri mantiq kategoriyasi, ikkinchisi esa lingvistik kategoriyadir.

Shuni ta'kidlash kerakki, tushuncha bilan leksik ma'no uzviy bog'liq bo'lsa ham, ular mundariyasi nuqtai nazardan aynan bir-biriga teng emas. Tushunchada narsa va hodisaning o'tkinchi, chegara belgilari ham o'z ifodasini topishi mumkin. Masalan, "daraxt" tushunchasining tarkibida "barg bilan qoplanganlik" belgisi ham mavjud. Lekin leksemaning semik tarkibi tushunchaning ichki komponentlari bilan to'liq mos kelmaydi. Leksemaning mazmuniy mundariyasi esa farqlovchi (differensial) belgilarga asoslanadi. Shuning uchun tushuncha komponentlari ichida ayrim belgilar leksik ma'no uchun nodifferensial bo'lishi mumkin. *Daraxt* leksemasining "barglilik" semasi ana shunday nodifferensial sema sanaladi. Chunki u daraxtdan boshqa o'simliklarda ham mavjuddir. Shuning uchun u leksik ma'no strukturasidan tashqarida qoladi.

Daraxt leksemasi mazmuniy mundarijasidagi "O'simlik" semasi o'zidan yuqoriroq sinf semasiga, "predmetlik" semasiga ishora qilib turadi. *Daraxt*

¹ Хожиев А. Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, 4-сон

leksemasining *harakat* yoki *belgilar* sinfiga emas, balki *narsalar*, *predmetlar* sinfiga mansubligi signifikativ ma'no orqali ongda reprezentasiyalangan denotat orqali sezilib turadi. Bu esa leksik ma'no mundarijasining pog'onaviyligini, leksik va grammatik ma'noning uzviy bog'liqligi va ko'pincha leksemada simultan holda mavjudligini ko'rsatadi.

Grammatik va leksik ma'no lisoniy ob'yekt xossasining turli sathdagi abstraksiyasidir. Shuni ta'kidlash lozimki. Har ikki ma'no alohida predmetlar hossalari emas, balki butun sinfga xos xossalari aks etishidir. Masalan, *kitob* leksemasining denotativ semasi faqat bitta kitobni emas, balki barcha kitoblarga xos umumiy belgini bildiradi¹.

Leksik va grammatik ma'no sifat jihatdan farqi bo'lishiga qaramasdan ular bir-biri bilan zich bog'liqdir. Shuning uchun so'z ma'osi haqida to'liq tasovvur hosil qilish uchun har ikki ma'no e'tiborga olinishi lozim bo'ladi. Shu bilan birga bu ikki ma'no nisbiy mustaqillikka ega bo'lib, ular alohida-alohida o'rganish ob'yekti bo'lishi mumkin².

Leksema belgi va ma'no birligidan iborat bo'lib, ob'yektiv olamdagi muayyan narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarning ----- , obrazi sifatida hamda leksik-asmantik sistemaning birligi sifatida funksiyalashadi. Leksik ma'nosni belgilashda har ikki aspekt bir butun holda e'tiborga olinadi.

Leksik ma'noning birinchi tomoni mazmuniy aspekt, ikkinchi tomoni struktur-funksional aspekt sanaladi. Mazmuniy aspekt olamni aks ettirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi aspekt leksemaning sistema ichidagi munosabatini o'z ichiga oladi.

Tushuncha tafakkur shakllaridan biri bo'lib, uning yordamida ob'yektiv borliq uzvlari ongda umumlashgan holda aks ettiriladi. Demak, tushuncha aks ettirish funksiyasini bajaradi. Belgi nazariyasiga ko'ra, tushuncha (konsept, referent) belgi semantikasining bir tomoni (bir burchagi)ni tashkil qiladi.

¹ Новиков Л.А. Семантика русского языка М. 1982 с. 8

² Новиков Л.А. Ўша асар, с.10

Tushuncha ikki muhim jihatga ega: hajm va mazmun. Tushunchaning hajmi deganda muayyan hodisalar sinfi, umumlashmasi, mazmuni deganda esa bu hodisalarning muhim belgilari tushuniladi.

Leksik ma'no esa tushunchaning mazmuni asosida belgilanadi. Tushuncha mazmuni murakkab ichki tuzilishga ega. Chunki u bu ichki tuzilishda ma'lum jihatdan munosabatda bo'lgan umumlashgan, muhim belgilardan iborat bo'ladi. Shuningdek, leksik ma'no ham tushunchaning mazmuniy belgilariga muvofiq keladigan semantik komponentlardan tashkil topadi. Masalan, "daraxt" tushunchasi quyidagi belgilarni o'z ichiga oladi: 1) o'simlik, 2) ko'pyillik 3) tana va shoxli 4) barglar bilan qoplangan. Tushunchaning bu komponentlari asosida uning nomi bo'lgan leksemaning semantik komponentlari vujudga keladi. Leksemaning semik mundarijasini aniqlashda ana shu belgilar asos bo'ladi. Xususan, *daraxt* leksemasining semik tarkibi asosida uning izohi quyidagicha bo'ladi: "Tanadan shakllanuvchi qo'pyillik o'simlik".

Ayrim mualliflar leksemadagi shakl va mazmun birligini e'tiborga olgan holda, shakl tomoni uchun nomema, mazmun tomoni uchun sesema atamalarini qo'llaydilar. Sememaning tarkibiy qismlari esa sema hisoblanadi. Demak, semema ham nisbiy butunlik sifatida semmalarining o'zaro munosabatlaridan tashkil topadi. Semema tarkibidagi semalar qavatlanish xususiyatiga ega. Semema semik tuzilishining perarxik tabiatini e'tiborga olgan holda, uning pog'onaviylik xususiyatini quyidagicha ko'rsatadilar:

- 1) nominatisema (denotativ, sigmatik ma'no)
- 2) aks etirish (signifikativ)
- 3) struktur ma'no (belgining, boshqa belgi bilan munosabatini ifodalovchi ma'no)
- 4) ifoda semasi (konnotativ sema)
- 5) amaliy sema (pragmatik sema)

Nominativ leksema sememasi tarkibidagi predmetlik semasi, ya'ni ob'yektiv borliqdagi denotatni bildirish semasidir. Bu sema borliqdagi narsa va

hodisalarni bildirganligi uchun denotativ sema ham deyiladi. Denotatlarni atash (nomlash) nuqtai nazaridan nominativ sema deb yuritiladi.

Nominativ (denotativ) sema belgining ob'yektiv borliqqa denativ yoki referentga munosabatini bildiradi. Masalan, kitob leksemasining denotativ ma'nosi ob'yektiv borliqdagi o'quv qurolidir. Denotat lotinchi denotat "narsa" demakdir.

Leksik ma'noga bunday yondashuv Ch.Ochden va I.Richardslarga borib taqaladi. L.Blumfildning til stimuliga nutqiy ta'sirlanish konsepsiyasi haqidagi ta'limoti ham denotatiya ma'no g'oyasi bilan yaqinlashadi.

Leksema sememasining semik dajalanishda denotativ semadagi signifikativ sema turadi. Signifikat lotincha signifikation so'zidan olingan bo'lib, "mazmun" demakdir. Demak, belgining signifikatga (tushuncha) bo'lgan munosabatini bildiruvchi sema signifikativ sanaladi. Signifikativ denotativ ma'no bilan uzviy bog'liqdir. Bulardan birinchisi "nimani bildiradi" degan savolga, ikkinchisi "nimani ifodalaydi" degan savolga javob bo'ladi. Birinchisi semantik predmet bilan, ideal referent, real narsalarning ongda aks etgan obrazi bilan, ikkinchisi esa narsaning o'zib ilan ism ko'radi. Masalan, *kitob* so'zining signifikativ ongimizda aks etgan "nashr qilingan o'quv quroli" dir. Bu signifikativ sema "o'quv quroli" sema bilan bir sinfga birlashgan daftar leksemasi sememsiga zidlangada yorqinlashadi. Daftar va kitob "o'quv quroli" arxisemasi asosida bir sinfga birlashgan ham, nashr qilinganlik-qilinmaganlik belgisi asosida o'zaro farqlanadi.

Struktur sema semematik nazariya nuqtai nazaridan belgilar sistemasidagi muayyan belgining boshqa belgiga munosabati orqali aniqlanadi. Qanday munosabat orqali bog'lanishi nuqtai nazaridan leksik ma'noning ikki turi ajratiladi: 1) sintagmatik struktur sema 2) paradigmatic struktur sema.

Sintagmatik struktur sema belgining boshqa belgi bilan ketma-ket munosabati, boshqacha aytganda, leksemaning valentligini bildiradi. Valentlik leksik u ma'lum leksik birlikning boshqasi bilan bog'lanish imkoniyatini, bog'lanish tipini ko'rsatadi.

Uning nutqiy jarayonda sintaktik birlik bo'lgan so'z birikmasi orqali voqealanadi.

Valentlik o'zaro sintaktik munosabatga kirishayotgan leksemalarning mazmuniy muvofiqligi qonuniyatiga asoslanadi. Bu qonuniyat sintagmatik munosabatga kirishayotgan har ikki leksema mazmuniy mundarijasida bir xil semaning mavjud bo'lishini taqozo qiladi. O'zaro mazmuniy bog'lanuvchi ikki leksemada takrorlanuvchi bir xil semaning mavjud bo'lishi ularning shu sema asosida sintagmatik munosabatga kirishish imkoniyatini ta'minlaydi. Masalan, *emoq* leksemasi tarkibida "chaynamoq" va "iste'mol qilmoq" sema mavjud. Bu semalar ushbu leksemani chaynab eyiladigan taom va "nozu-na'matlar" semalariga ega bo'lgan leksemalar bilan bog'lanish imkoniyatiga ishora qiladi.

Natijada "chaynamoq", "iste'mol qilmoq" sintagmaning har ikki a'zorida takrorlanadi. So'zlovchining til xotirasida ongida *emoq* leksemasining bog'lanish tipi, sxemasi vujudga keladi

Sintagmatik munosabatga kirishuvchi ikki leksemaning har birida ularning bog'lanishiga imkon beruvchi takrorlanuvchi semani fransuz tilshunoslari *klassema* deb ataladi va uning *iterativ*, ya'ni takrorlanuvchilik xususiyatini ta'kidlaydilar. Demak, ma'lum bir tilning grammatik-semantik me'yorlari asosida sintagmatik munosabat yuzaga chiqishi uchun o'zaro sintagmatik munosabatga kirishuvchi a'zolar klassemaga ega bo'lishlari lozim. Ana shunda bog'lanuvchi a'zolar o'rtasida mazmuniy muvofiqlik bo'ladi. Mazmuniy muvofiqlikka ega bo'lgan leksemalar sintagmatik munosabatgi odatiy bog'lanishni, buning aksi esa noodatiy bog'lanishni hosil qiladi.

O'zaro sigtagmatik munosabatga kirishayotgan leksemalar o'rtasida asmik uyg'unlik, mazmuniy muvofiqlik bo'lmasa, bunday bog'lanish noodatiy bog'lanishni vujudga keltiradi va u aksyumoron deyiladi. Oksyumoronlar badiiy asarlarda obrazlilikni ta'minlash, ta'sirchanligini oshirish uchun adibning individual nutqi sifatida yuzaga chiqadi. Masalan, *shirin o'lim*, *yashil sabo*, *qizil qor*, *yalpizga suyanmoq* (M.Yusuf), *Kiprikka o'tirmoq* (M.Yusuf) va boshq.

Har qanday leksik birlikning bogʻlanish qonuniyatlari va ularning distribusiyasini oʻrganish semantik tahlilning boshlangʻich nuqtasi va zaruriy bosqichi sanaladi.

Sintagmatik struktur sema muayyan leksemaning boshqa barcha leksemalar bilan individual bogʻlanishlari asosida emas, balki tipiklashtirilgan bgʻlanishlari, yaʼni bogʻlanish modellari orqali belgilanadi. Masalan, yurmoq, suzmoq, uchmoq leksemalari bir umumiy arxisema asosida bir paradigmaga mansub boʻlsa ham, ular valentliklari bilan farq qiladi. Ularning valentliklari nutqiy jarayonda voqelangan cheksiz bogʻlanishlarni umumlashtirish, tiplarga birlashtirish asosida belgilandi.

Sintagmatik struktur leksemalarning sintagmatik munosabatiga ishora qiladi va soʻz birikmalari va jumladan feʼl leksemalar valentliklarining voqelanish natijasidir. Demak, sintagmatik struktur sema leksemalarning sintagmatik munosabatiga ishora qiladi va soʻz birikmalari va jumlalarining yuzaga chiqishiga asos boʻladi.

Paraligmatik struktur sema bir turdagi leksik birliklarning oʻzaro shartlangan va zidlangan munosabatidan tashkil topgan sinfi (paradigmasi) ga xos sema hisoblanadi. Bu paradigmatic qatordagi belgining boshqa belgiga boʻlgan munosabati orqali namoyon boʻladi.

Struktur semaning bu turi sememasining muayyan leksemaning bir paradigmaticmaga mansub boʻlgan boshqa leksemalar sistemasidagi qiymatini belgilaydi. Har bir paradigma aʼzosi boshqa aʼzolar bilan sinfga xos (integral, birlashtiruvchi) semaga ega boʻlish bilan birgalikda, faqat oʻziga xos (farqlovchi, differensial) semaga ham ega boʻladi.

Bu semalar leksemani paradigma doirasidagi boshqa leksemaga zidlash asosida aniqlanadi.

Leksema sememasining semik tarkibi uning sintagmatik munosabati orqali aniqlansa, semema tarkibidagi semalarning itegrativ (birlashtiruvchi) va differensial (farqlovchi) funksiyalari paradigmatic munosabatida, bir paradigma doirsidagi leksimalarning zidlanishda namoyon boʻladi. Masalan, *yurmoq*,

suzmoq, *uchmoq* leksemalari bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga “jilish” (a_1) semasi bilan birga, “quruqlikda” (a_2) “suvda” (a_3) “havoda” (a_4) semalaridan biriga ega. $a+a_2$ semalari yurmoq leksemasining, $a+a_3$ *suzmoq* leksemasining, $a+a_4$ *uchmoq* leksemasining semik mundarijasini tashkil qiladi. Bulardan a semasi har uch leksemani bir paradigmaga birlashtiruvchi, ya’ni paradigma hosil qiluvchi sema, a_2 , a_3 , a_4 semalari esa paradigma a’zolarini bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan semadir.

Ko’rinadiki, sintagmatik struktur sema bilan paradigmatic struk sema o’zaro bog’liqdir. Paradigmatic struktur sema sintagmatik struktur sema tayangan holda belgilanadi.

Tildagi so’zlar paydo bo’lishdayoq; o’z tovush qiyofasiga va ma’lum bir lug’aviy yoki grammatik ma’noga ega bo’ladi. Tilda ma’nosi yuq so’zning bo’lishi mumkin emas. Bu har qanday tildagi barcha so’zlar uchun xos bo’lgan umumiy xususiyatdir. Lekin so’zlar ifodalaydigan ma’nolar eng umumiy belgi-xususiyatlariga ko’ra ham har xil bo’ladi. Avvalo so’zlar ob’ektiv borliqdagi narsa-hodisa, belgi, harakat kabilarni bildirishi (tushuncha ifodalashi) va bunday xususiyatga ega emasligiga ko’ra ikki guruhga bo’linadi: 1) tushuncha ifodalaydigan so’zlar (NBlar); 2) tushuncha ifodalamaydigan so’zlar. Leksema bir qarashda, oddiy va aniq narsaga o’xshaydi, ammo u aslida juda murakkab, tushunilishi qiyin, jumboqli til birligi ekanligini ishimizning oldingi bobida ham qisman ta’kidlagan edik. Tilshunoslikda so’zning ilmiy va mukammal ta’rifini aniqlash bo’yicha ko’plab tadqiqot ishlari olib borilganiga qaramay, bunday ta’rifning “sir”lari hozircha ochilganicha yo’q. Darhaqiqat, an’anaviy tilshunosliksiz tovush va tovushlar yig’indisi bilan ma’noning uzviy birligi, sistemali-strukturaviy tilshunoslikda esa ifoda va mazmun birligi sifatida e’tirof etib kelinayotgan so’zning, NBning hali kashf etilmagan xususiyatlari ko’p. So’z ifoda jihatdan leksema, mazmun jihatdan semema deb yuritiladi. Bu ikki jihatning dialektik birligi so’z (leksik birlik yoki NB) ning asosini tashkil qiladi. Masalan, svu, usv, vsu tovushlar yig’indisini oladigan bo’lsak, ular o’zbek tilida hech qanday ma’noni anglatmaydi, ammo ular tarkibidagi tovushlarni

muayyan tartib-qoidalar asosida ketma-ket s+u+v so'zi tarzida joylashtirsak, bu tovushlar yig'indisi o'ziga xos nominativ birlikka, ya'ni "leksemaga" aylanadi va muayyan mazmunga ega bo'ladi.

So'zning ifoda jihati o'zgarishi bilan uning mazmun jihati ham o'zgaradi. Buni darz - qarz - farz - tarz; dars - qars- tars - chars - mars; ona - ota ola -q ora - ona *so'zlari misolida ko'rish mumkin.*

So'zning mazmun jihati, ya'ni ma'no anglatishi uning ilmiy ifoda jihatiga qaraganda murakkabroqdir. Jumladan, yuqorida biz keltirgan suv so'zining asosiy ilmiy ta'rifi, ya'ni suv - bu vodorodning ikki va kislorodning bir atomidan iborat bo'lgan rangsiz, shaffof suyuqlik, degan ta'rif bilan mazkur NBning ma'no strukturasi aniqlanmaydi. Suv sememasi ma'no strukturasini to'liqroq tasavvur etish uchun quyidagi misollarga murojaat qilaylik.

1. *Qovun birla uzumning hajrida ko'nglimda g'am har jo'.*

Oqar suvning firoqidin ko'zimdin har dam oqar su

[Bobur. Asarlar. 1-jild, 187].

2. *Vodovozlar oldida odamlar g'ujg'on o'ynardi. Biri paqir ko'targan, biri shisha bankada, biri kosada suv olib ichardi* (Said Ahmad. Jimjitlik, 197).

3. *Ish chatoq. Kenja mirob. Tog'dan katta suv kelyapti. Darhol chora ko'rishimiz darkor* [Hamid G'ulom. Qoradaryo, 84].

4. *Oyko'lga baland Sunbul cho'qkisidan odamning beliday suv qishin-yozin tushib turar ekan-u hech yeridan chiqib ketmas ekan* [P.Qodirov. Qora ko'zlar, 20].

5. *Qor suvlari va buloqlar toshlarga urilib shildiraydi* [P.Qodirov, Qora ko'zlar, 79].

6. *"Suvni olib borib qo'ydik!" degan edingiz, kelib kursam kanal ham bizdan besh chaqirim narida* [Said Ahmad. Jimjitlik 164].

7. *Rahimov parhez taom yerdi... Bedana tabakadan jichchagina tatib ko'rdi-yu, pomidor suvi ichib o'tirdi; [Said Ahmad. Jimjitlik 234],*

8. Ozigina mizg'igan ekan, tushiga dadasining otasi, Xalim bobo kiribdi. U CHO'tir CHashma bo'yida bir kosa suv ushlab, imlab chaqiripti [*Said Axmad. Jimjitlik 300*].

Suv NBi Yuqorida keltirilgan 1-gapda *ko'z yoshi*, 2-gapda *ichimlik suvi*, 3-gapda *sel*, 4-gapda *soy*, 5-gapda *jilg'a*, 6-gapda *kanal*, 7-gapda *sharbat*; 8-gapda *shifobaxsh suv* maʼnolarida qoʻllangan. Bundan tashqari *so'z* NBning *ter* (hamma yog'i suv bo'lib ketdi), *ko'lmak xalqob* (mashina suvni sachratab o'tdi), *o'lgan odamni yuvish* (mayitni suvga olishdi), *cho'milmoq* (yozda suvga bormoq), *jonlanish*, *uyg'onish* (novdalarga suv yugurib qoldi), *so'lak* (og'zimning suvi qochdi), *qattiq qotgan* (suvi qochgan non), *mazasiz*, *bemaza* (suvi ko'p asar), *yiring* (yarasidan suv oqib turmoq), *spirtli ichimlik* (uzumning suvi) kabi bir qator maʼnolari ham mavjud. Ko'rinadiki, Yuqorida biz keltirgan misollarning barchasida suv NB orqali foydalanayotgan predmetga ishora bor. Buni *suvga tushgan mushukday*, *suv yuqtirmaydi*, *suvga olib borib sug'ormasdan keladi*, *tushini suvga aytmoq*, *sirkasi suv ko'tarmaydi*, *suv qilib ichib yubormoq* kabi tarkibida suv leksemasi bo'lgan iboralarga nisbatan ham aytish mumkin. NBlarning ma'no tarkibi o'rganilar ekan suv leksemasining bu kabi xususiyatlarini ham inobatga olish lozim bo'ladi.

Suv NBga aloqador bo'lgan, bu leksema bilan bir sintaktik qurshovga mansub irmoq *jilg'a*, daryo *soy*, ko'l, dengiz, okean, botqoq, ko'prik baliq, buloq to'lqin, cho'milmoq, cho'kmoq, suzmoq, oqmoq, sohil, kema, qirg'oq kabi leksemalar mazmun jihatidan suv NBga bog'lanib, tilda alohida tushuncha maydoni (ideografik ruh)ni hosil qiladi. Sanab o'tilgan leksema (so'z)larning barchasida suv NLBining bizga ma'lum xususiyatlariga, ya'ni uning denotativ asosiga ta'kid, ishora seziladi. SHuning uchun ham mashhur rus tilshunosi, akademik V.V.Vinogradov o'zining "Rus tili" (so'z haqida grammatik ta'limot) asarida "so'z ma'nosi u orqali ifodalanayotgan predmetdan va atash vazifasining predmetga mutanosibligidan uzoqlab ketmaydi", deb ta'kidlagan edi.

NBning, so'zning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u o'zi ifodalayotgan predmet bilan uzviy aloqadorlikda bo'ladi va ma'lum bir predmetlar guruhining umumlashgan xususiyatlarini o'zida mujassam etgan tushunchaga mos ravishda real

borliqni aks ettiradi. SHu sababli NBning predmetga va tushunchaga nisbatan bo'lgan mutanosibligi qadimdan tilshunos olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan edi.

So'z orqali nomlanuvchi voqelik narsa-buyum denotat deb ataladi. Denotat lotincha denotate – belgilamoq so'zidan olingan. Tilshunoslikda referent (lotincha referens, referentis - xabar beruvchi) atamasi ham denotatga ma'nodosh sifatida qo'llaniladi. Bundan ko'rinadiki, so'z, NB o'zi ifodalayotgan voqelik, narsa-buyum bilan o'zaro aloqaga kirishadi, uzviy munosabatda bo'ladi. Tilning substantlik xususiyati ham aynan mana shunga asoslanadi.

Moddiy olam bevosita kuzatishlar (substantsiyalar)da berilgan bo'lib, olamning murakkab tuzilishi ichida insonning o'zi ham bir element sifatida uning tarkibiga kirib ketadi. Materiyaning boshqa shakllaridan insonning yagona farqi shundaki, u real borliqni o'z ongining amaliy shakli sanalgan til orqali aks ettiradi, ya'ni til simmetrik (muvofiqlik) xususiyatga egadir.

Inson borliqdagi narsa-hodisalarni kuzatadi, ularning doimiy hamda muvaqqat belgilarini aniqlaydi, ular ichidan eng muhimini tanlab, predmet, voqea-hodisalarga nom beradi, shu asosda tilda nominativ birlik (NB)lar vujudga keladi.

Tilda nomlash vazifasini bajaruvchi birliklarni hosil qilish jarayoni nominatsiya (lotincha nominatio - atash, nom qo'yish) deb yuritiladi. So'z onomasiologik jihatdan nomema, kinema kabi atamalar bilan ham nomlanadi. Uning bunday atalishi nominativ vazifa bilan bog'likdir. Aslida so'z orqali ifodilangan denotat (referent) muayyan narsa-buyum emas, balki ifodalanayotgan predmetlarning umumlashma obrazi sanaladi. U real borliqdagi narsaga nisbatan olinib, inson ongida yaratiladi.

Masalan, **BOG'** so'zi mevali va mevasiz daraxtlar o'sadigan barcha joylarning umumlashma obrazini o'zida ifodalaydi: *Salim bilan Fazliddin "tomosha bog'da" kezgan singari, sekin-sekin yurib bog'ning hap jihatini ko'zdan kechira boshladi* [Oybek. Kutlug' Qon].

SHuningdek, bu NB shahardan tashqaridagi qo'rg'on va unga yopishgan mevazor, tokzor joy ma'nosini ham ifodalab keladi: *Jondor vagonchi ikki yil ichida katta bog'lar sotib oldi, shaharda ichki-tashqi hovli bino qildi* [Oybek. Kutlug' qon].

Bu NB ko'chma ma'noda gullab-yashnab turgan obod joy gulshan ma'nolarini ham ifodalashga vosita bo'ladi:

Go'zal bog'da o'ynaylik

Guldan-gulga qo'naylik.

Gulshan o'lka madhini

Birgalikda kuylaylik [*G'ayratiy*]

"Bog'", NBi, "biri bog'dan kelsa, biri tog'dan keladi", "uzumini ye, bog'ini surishtirma" *singari bir qator iboralarni shakllantirishga ham xizmat qiladi: Hammangizning gaplaringiz bir joydan chiqish kerak Biringiz bog'dan biringiz tog'dan kelsangiz bo'lmaydi [P.,Tursun. O'qituvchi] kabilar.*

Tilimizda faol qo'llanuvchi bog'bon qaychi, tok, xomtok, shinni singari NBlarda ham huddi shu holat kuzatiladi:

1. Bog'bon NBi bog'dorchilik mutaxassisi hamda bog' va undagi mevali daraxtlarga qarovchi, ularni parvarish qiluvchi kishi, shaxs degan ma'nolarni bildiradi: *Keyin bolalar bog'chasiga qarashli boqqa bog'bon bo'ldi [A.Qahhor. Yillar] kabilar.*

2. Qaychi NBi "yupqa narsalarni kesish uchun ishlatiladigan, o'rta yeridan bir-biriga vint bilan biriktirilgan ikki tig'dan iborat asbob" ma'nosini bildiradi. SHu leksema yordamida tilimizda *"barmoqlarini qaychi qilmoq* iborasi shakllangan bo'lib, barmoqlarni qaychi singari ochib-yopmoq ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi: *- Do'stlarim, - dedi u, ozg'in barmoqlarini qaychi qilib o'ynar ekan. - Siz bilan biz ulug' ishga bel bog'ladi [Hamid G'ulom. Mash'hal] kabilar.*

3. Tok NBi *"uzum o'simligi"* ma'nosini bildiradi: Bir tup tok eksang, bir tup tol ek (*Maqol*); Hovlining yonida chorbog', chorbog'da rasta-rasta qilib havoza ko'tarilgan toklar... [*S.Ayniy. Qo'llar*] kabilar.

4. Xomtok NBi tilimizda polisemantik xususiyatga ega.

Uning dastlabki ma'nosi "tokning hosilsiz, xom novdalarini olib tashlab, siyraklashtirish"dir: *Fayzi ota ishkomning narigi chekkasida xomtok qilib yurgan edi [Hamid G'ulom.. Binafsha atri].* Bu leksemaning keyingi ma'nosi oldingisining natijasi sifatida yuzaga chiqish bo'lib, "tokidan endigina qirqib tashlangan hosilsiz, xom novda"ni bildiradi.

3. SHinni NBida yarim natija semasi ko'chli tarzda ifodalangan, ya'ni bu leksema tut, uzum kabi mevalar shirasini qaynatib tayyorlanadigan qiyom ma'nosini bildiradi.

Doshlarda qaynagan shinnining hidi

Dimog'ni shod etar, ruhni salomat [*G'.G'ulom*) kabilar.

Demak, so'z yoki NB to'g'ridan-to'g'ri predmet (denotat)ga bog'lanmaydi, o'rtada u haqida tushuncha (umumlashma obraz) bo'lishi zarur. Buning negizida esa asosiy (markaziy) ma'no va ust (ko'shimcha) ma'no shakllanadi. Jumladan, biz yuqorida keltirgan bog', bog'bon, qaychi (tok qaychi), xomtok shinni singari leksemalar umumiy obraz bilan bir-biriga o'zaro bog'lanadi, yaxlit tushuncha maydoni – bog'dorchilik, uzumchilik sohasiga birlashadi, shu asosda bu NBlarning xususiy ma'nolari shakllanadi, lekin bu xususiy ma'nolarning barchasi u yoki bu darajada umumiy ma'noga - bog'dorchilik sohasiga aloqadorlikni o'zida saqlaydi. SHunga ko'ra so'z, NB bilan predmet o'rtasida predmet (denotat) - umumlashma obraz (signifikat) — asosiy (markaziy) ma'no — ust,(qo'shimcha) ma'no - so'z (belgi, NB) tarzidagi aloqa mavjud, degan xulosaga kelipshmiz mumkin. SHu jihigdan so'zga berilgan quyidagi ta'rif e'tiborga molik: "Leksemalarning va unumli so'z yasash qoliplarining nutqda voqelashgan, aniq shakl, mazmun va vazifaga ega ko'rinishiga so'z deyiladi" Bu ta'rifda keltirilgan "qolip" so'zi keyingi yillarda ayrim tilshunoslarning jiddiy e'tiroziga sabab bo'lmoqda. Masalan, Akademik A.Hojiev "O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari" nomli maqolasida ta'kidlashicha, "qolip so'zi biron-bir til hodisasining mohiyatini ifodalay olmaydi, SHuning uchun ham bu so'z shu vaqtga qadar lingvistik termin sifatida qo'llanmagan".

NBning o'zi nomlayotgan predmetga aloqadorligini mukammal anglab yetish uchun denotatning turlari haqida ham yetarli ma'lumotga ega bo'lishimiz zarur. Denotat hissiy va nazariy bilish natijasida bir turdagi narsalarning umumiy va xususiy belgilari ichidan ajratib olingan minimal qiymatdir. NBlar tarkibidagi sememaning semalarini konkret, aniq belgilash ma'no jihatdan o'zaro qandaydir aloqasi bo'lgan so'zlar munosabatini. Shuningdek, ko'p ma'noli NBlar sememalarini to'g'ri

belgilashga imkon beradi. Buning uchun leksik ma'no tiplarini aniq belgilab olish lozim bo'ladi.

2.2. Nominativ birliklarda leksik ma'no tiplari.

So'zning, jumladan, NBning leksik ma'nosiga turli nuqtai nazardan yondashilganda, u leksik ma'no tiplariga ajratiladi va maxsus nomlar bilan ataladi. Hozirgi kunga qadar semantika va leksikologiyaga doir adabiyotlarda leksik ma'noga nisbatan etimologik ma'no, genetik ma'no, arxaik ma'no, bosh ma'no, asos ma'no, yasama ma'no, hosila ma'no, tobe ma'no, to'g'ri ma'no, ko'chma ma'no, nominativ ma'no, figural ma'no, erkin ma'no, bog'li ma'no va shu kabi bir necha xil terminlarni qo'llanilishi leksik ma'noga turli nuqtai nazardan yondashish va uning tiplarini har xil tushunish natijasi sanaladi. Akademik A.Hojiev "leksik ma'no" atamasiga quyidagicha ta'rif beradi: "So'zning material qismi (leksema) bildiradigan ma'no ma'lum tovushlar kompleksini ma'lum obyektiv voqelikka bog'lash bilan kishi ongida yuzaga keladigan mazmun-mundarija lug'aviy ma'nodir. Yasalish (hosil bo'lish) munosabatiga ko'ra leksik ma'no semasiologiya fanida quyidagicha ikkiga bo'lib o'rganiladi: a) asos ma'no, b) yasama ma'no.

U yoki bu ma'noning yuzaga kelishida asos bo'ladigan ma'no asos ma'no deb yuritiladi uning ta'siri asosida hosil bo'lgan ma'no esa yasama ma'no sanaladi. Tilimizda juda ko'p NBlarning semantik tarkibida asos ma'no va yasama ma'no mavjud. Biz bu o'rinda ana shunday NBlarning ayrimlarini tahlil qilishga intilamiz. Masalan: adabiy tilimizda "tugmoq," fe'li bo'lib, uning o'zagi "tug" bog'lamoq o'rab bog'lamoq ma'nolarini bildiradi: *Keyin sandig'i ochib, bisotidan bir kiyimlik chit oldi-da, barkashning ustiga qo'yib, dasturxonga tugdi* (Oybek. Kutlug' qon). Bu *tugmoq* so'zining asos ma'nosi bo'lib, undan "tugun", "tuguncha" "tugunak", "tugunchak" leksemalari - NBlari hosil bo'lgan.

Tugun NBi "arqon, ip, lenta va shu kabi narsalarning bog'lab ulangan yoki sirtmoq kabi tortib bog'langan yeri" degan hosila, yasama ma'noni bildiradi. *Devona belbog'ning tuguniga astoydil yopishgan holda - O'g'irlamadim, tentak hoji pochchangning to'yidan oldim! - dedi* [A.Qodiriy.O'tgan kunlar].

Keyinchalik adabiy til taraqqiyoti bilan bog'liq holda bu NBning nerv tuguni, xo'rlik tuguni, ziddiyatlar tuguni, tugun oshi singari bir qancha yangi ko'chma ma'nolari ham yuzaga kelgan. *Hayot gapirolmadi, xo'rlik tuguni bo'g'ziga urdi, mungli ovozi ko'z yoshlariga ko'mildi* [M.Ismoilov, Farg'ona tong otguncha] kabilar.

Tilimizda "tug" asos ma'nodan "tugunchak" NB hosil qilingan. Bu yasama ma'noli leksema ikki NB ifodalashga xizmat qiladi: 1) so'zlashuv tiliga xos kichraytish ma'nosidagi tuguncha: *Xo'jayin tugunchakni yechib, deraza tomonga o'tdi* [Oybek Qutlug' qon]; 2) aynan tugun: *kartoshka tugunagi, tugunak bakteriyalari* kabilar.

Yasalish munosabatiga ko'ra NBlar ifodalaydigan leksik ma'nolari asos va yasama ma'noga ajratilar ekan, bunda birdan ortiq ma'noning o'zaro munosabati masalasiga oydinlik kiritish zarur bo'ladi. Negaki, NBlar ifodalaydigan leksik ma'noni bunday tiplarga ajrash va nomlash polisemantik sememalar uchun xarakterlidir. Bir ma'noli (monosemantik) NBlarda leksik ma'noning bunday ko'rinishlari mavjud bulmaydi. Polisemantik so'zlarning ma'no miqdori har xil (ikki va undan ortiq) bo'ladi. Bunda yasama ma'nolarning hammasi bir umumiy ma'no asosida hosil bo'lavermaydi, ya'ni polisemantik so'zlarda asos ma'no hammavaqt bitta bo'lavermaydi. Polisemantik so'zlarda asos ma'no bitta, ba'zan esa birdan ortiq bo'lishi ham mumkin. Masalan, *a'zo* NBlar quyidagi ma'nolarga egadir: A'ZO 1. Odam yoki hayvon organizmining muayyan bir vazifani bajaruvchi qismi [UTIL, 1, 66]: *Sezgi a'zolari, ichki a'zolar*. 2. Kishining butun vujudi, jon-tani: - *Siz nima javob berdingiz?* - *dedi butun a'zosini titrov bosgan Gulsumbibi qichqirib* [Oybek. Kutlug' qon] kabilar. 3. Biror ijtimoiy guruh, jamoa yoki jamiyatga mansub har bir kishi: *Oliy Majlisning qonunchilik palatasi a'zolari bu masalani qizg'in muxokama qilib, bir qarorga keldilar*.

Demak, bundan ko'rinadiki, "a'zo" leksemasida asos ma'no (odam a'zosi) va ikki yasama ma'no (butun a'zoyi badani, jamiyat, uyushma a'zosi kabilar) mavjud. *O'yin* leksemasi ma'nolari taraqqiyotida boshqacha holni ko'ramiz. Bu leksemaning "O'TIL"da yetti ma'nosi qayd etilgan: 1. Ko'ngil ochish, dam olish maqsadida qilinadigan erkin harakat yoki mashg'ulot: *bolalar o'yini: Ko'cha tutash*

balchiq bo'lganidan bolalarning uyini tugul, yurishiga ham imkon yo'q edi [Oybek. Kutlug' qon]. 2. Boshqalar bilan musobaqa qilish uchun ma'lum qoidalar asosida o'tkaziladigan mashg'ulot: *Futbol uyini. SHaxmat uyini. Estafeta uyini* 3. O'rta pul yoki narsa tikib o'tkaziladigan mashg'ulot; qimor: *Otam o'yin qizig'ida yutqazishga yutqazib qo'yib, keyin o'zini urdi, peshonasini yordi, yiqildi* [M.Ismoilov. Farg'ona tong otguncha]. 4. Ritmik harakatlar va mimikalar uyg'unligidan iborat san'at; raqs: *Oyoq o'yini. SHo'x o'yin. Kavkazcha o'yin. O'yin ham turli nazokat kasb etib, Gulsinbibi yurg'alay ketdi* [A.Qodiriy. O'tgan kunlar] Spektakl, konsert, sirk tomoshasi va shu kabilar haqida: *Bular teatrniig oldiga kelganlarida o'yin boshlanishiga uchinchi signal, qo'ng'iroq ham berilgan edi* [O'.Xoshimov. Dunyoning ishlari] kabilar. 6. Betartib, biroz o'ziga xos jozibali harakat, (hayvon va narsalar harakati haqida): *Qo'zilarning kichikroqlari jilg'a bo'yida u yoqdan buyoqqa yugurib o'yin tushishadi* [P.Qodirov. Qora ko'zlar]. 7. Qaltis hazil, g'alati qiliq injiqlik va shu kabilar haqida: *Achchiq o'yin shirin turmush buzar* (maqol); *Har holda taqdirning bunchalik o'yinlari turgan zamonda biz nima ham qila olur edik* [A.Qodiriy. O'tkan kunlar] kabilar.

Yuqorida keltirilgan "o'yin" NBlar 2-, 3- va 5- ma'nolari 1-ma'nosi asosida yuzaga kelgan, 4-, 6- va 7-ma'nolari shakllanishi uchun esa 3-ma'no asos bo'lib xizmat qilgan.

Demak, NBlar tarkibida yasama ma'noning o'zi ham boshqa ma'no (yoki ma'nolar)ning yuzaga kelishi, yangi NBlarning shakllanishi uchun asos ma'no hisoblanishi mumkin. Leksik ma'no ob'ektni, voqea-hodisani qay tarzda ifodalashiga ko'ra ikki turga bo'linadi: nominativ ma'no va figural ma'no.

Nominativ ma'no narsa, belgi, harakat haqidagi bevosita ma'lumot, ular bilan bevosita bog'lanadigan ma'nodir. Figural ma'no esa predmet, belgi, yoki harakat bilan bevosita bog'lanmaydi, ya'ni so'z figural ma'nosi bilan predmet, belgi va yoki harakatning nomiga aylangan bo'lmaydi, figural ma'no nominativ ma'no orqali predmet, belgi yoki harakat bilan bog'lanadi. Jumladan, *shira, urug', sho'ng'imoq til* kabi NBlarning ma'no komponentlarini tahlil qilib ko'raylik.

SHIRA. Forscha-tojikcha bu so'zning "O'TIL"da beshta ma'nosi ta'kidlangan. 1. Xo'l meva va poliz ekinlari pishib yetilishi bilan ular tarkibida

hosil bo'ladigan shirin suyuqroq, sharbat. Uzunning shirasi. Qovunning shirasi. *Qozi domla bir necha lahzada kosani tushirib, yuqa pustloq ichidan shirasi tomib ketguday bo'lib turgan shaftoliga qo'l urdi* [M.Ismoiliiy. *Farg'ona tong otguncha*].

2. Inson yoki hayvon organizmi hujayralarida bo'ladigan suyuqlik. *Me'da osti shirasi. Ba'zi bezlar o'z-o'zidan shira chiqarib turadi*, 3. Ko'knor po'stini suvda ezib tayyorlangan, kayf beradigan ichimlik. 4. Biror asar, gap, so'z va shu kabilarning mazmuni, ma'nosi, mohiyati, *Gapining shirasi yo'q odam. Bir xalq tilidagi asar ikkinchi xalq tiliga shu asarning butun fazilati, shirasi, jozibasi saqlanib tarjima qilingandagina maqsadga zrishiladi* [R.Salomov. *Tarjima nazariyasiga kirish*]. Ohangdorlik jarangdorlik yoqimlilik (ovoz haqida): - *Hozir SHeroziyning ovozi ayni shira bog'lagan payt, dongi Xorazmga tarqalgan, - dedi Sobir aka* [J.SHaripov. *Xorazm*] kabilar.

URUG'. Bu NBning "O'TIL"da olti ma'nosi qayd qilingan. 1. O'simlikning murtak oziq moddalari va qobiqdan iborat hosili; don, tuhum. *Sochilgan urug' unib chiqadi; Bemaza qovunning urug'i ko'p* [Maqol]; *Ter to'kib sochsang urug', yer seni ko'ymas quruq* [Maqol]; *Ko'klamda ona-bola tog' etagidagi qo'riqqa chiqib belkurak bilan yer ag'darib lalmi bug'doy ekishdi "lekin qurg'oqchilik bo'lib uruqqa ham chuv tushishdi* [P.Qodirov. *Uch ildiz*]. 2. Biol. Erkaklar jinsiy bezi ishlab chiqaradigan, jinsiy xujayralardan iborat suyuqlik sperma, maniy. 3. Ipak qurti kapalagining tuxumi; qurt urug'i. 4. Bir ota-bobodan, bir ajdoddan kelib chiqqan kishilar; avlod, qarindosh. *Boy o'z urug'ing ekan, yaxshi muruvvat qilar* [Oybek. *Kutlug' qon*]. 5. Ibtidoiy-jamoa tuzumida: o'zaro qon-qardosh bo'lgan kishilardan iborat dastlabki asosiy tashkilot, uyushma, jamoa. *Ilgari oqsoqollar boshchiligidagi har bir urug' o'zini bir - biridan yuqori qo'yar, bir-birining odatidan, tilidan kular edi* [P.Tursun. *O'qituvchi*]. 6. Ko'chma. Tarqalish, yuzaga kelish manbai; sabab. *Nizomulmulk fitna urug'ini uzoqni mo'ljallab, juda maxfiy sepmoqda* [Oybek. *Navoiy*].

SHO'NG'IMOQ. Bu NBning "O'TIL"da besh ma'nosi ta'kidlangan. 1. Suv yoki boshqa bir suyuqlik ichiga kirib botib ketmoq cho'kmoqda. *Bir sho'ng'ib chiqmoq. SHoshgan o'rdak ham boshi bilan, ham keti bilan sho'ng'iydi*

[Maqol]; *Hovuzdan zog'ora baliq cho'rtan baliq laqa baliqlar goh suv yuziga chiqib, tashlangan nonlarni yer, goh bir tashlab o'ynab sho'ng'ib ketardi* [J.SHaripov. Xorazm]. 2. Ko'chma. Biror narsa orasiga kirib, berkinib ko'zdan g'oyib bo'lmoq tinmay ketmoq kirib ketmoq: yashirinmoq *Suyun Burgut bir sakrashda yerga tushdi-da olchazorga sho'ng'idi* [O.Yoqubov. Adolat manzili]. 3. Katta tezlik bilan pastga qarab otilmoq nihoyatda tezlik bilan pastga qarab uchmoq: *Samolyotlar qora bo'ronday tepada gir aylanib, ajalkor qoida va tartib bilan sho'ng'iydilar* [Oybek. Quyosh qoraymas]. 4. Ko'chma. Uy, hayol, qayg'u, vahima kabi hissiyotlarga qattiq berilmoq cho'mmoq: *SHu choqqacha multayib hayol ichiga sho'ng'ib o'tirgan Kumushbibi bir seskandi-da, ko'shiqchi qizlarga qaradi* [A.Qodiriy. O'tgan kunlar]. 5. Ko'chma. Ish-harakatga, mashg'ulotga qattiq kirishib ketmoq berilmoq: *Ona hech kimning so'zi, taklifini kutib turmasdan avvalgidek ishga sho'ng'idi-ketdi* [O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari] kabilar.

TIL. Bu NBning "O'TIL"da ma'nosi qayd qilingan. 1. Anatom. Og'iz bo'shlig'iga joylashgan, tam-maza bilish, kishilarda esa, bundan tashqari, nutq tovushlari hosil qilish uchun xizmat qiladigan a'zo. *Issiqdan itning tili osilgan; Aytsam tilim kuyadi, aytnasam - dilim* (Maqol); *SHifokor Olga Petrovna ... kasalning tilini chiqartirib ko'rdi* [M.Ismoilov. Farg'ona tong otguncha]. 2. Insonning so'zlash, gapirish qobiliyati, gap, so'zlashuv: *Xotinning bu gapi Butaboyga jon-jonidai o'tib ketdi, lekin bundagi kuchli mantiq tilini bog'ladi-yu, hech narsa deymadi* [Said Ahmad. Xush]. 3. Fikr ifodalash va o'zaro aloqador quroli bo'lib xizmat qiladigan tovushlar, so'zlar va grammatik vositalar sistemasi: *Til bilmaslik birinchi haftalarda ularni qattiq qiynadi. Lekin so'zlashuv uchun ularda ko'chli orzu, ruhiy zarurat bo'lganidan bu qiyinchilik asta-sekin yo'qolaverdi* [Oybek Qyrlug' qon]. 4. Nutqning o'ziga xos xususiyatlari va ifoda vositalari bilan ajralib turadigan bir turi, stil, uslub: *Badiiy adabiyot tili. So'zlashuv tili Gazeta tili. Bola tili. Nazoiy tili. Oybek asarlarining tili* Bu yer "to'quv tsexi", *bo'zchilar tili bilan aytganda - do'konxona* [A.Muxtor. Opa-singillar]. 5. Fikr ifodalashda o'zaro aloqa jarayonida yuzaga keladigan ibora, gap, so'z, nutq: *Til qilichdan o'tkir* [Maqol]; *To'g'ri til toshni yoradi, egri til - boshni* [Maqol]; *Sevdirgan ham til, bezdirgan ham til* [Maqol]. 6. Harb.

Kerakli ma'lumot olish maqsadida olingan harbiy asir: *Qo'mondonlik Ostonaquillar keltirgan 'til'dan hujum mashinaning planini tuzish uchun eng kerakli ma'lumotlarni oldi* [A.Rahmat. Ellik bir bahodir]. 7. Ko'chma. Asbob, mexanizm va shu kabilarning osilib, qimirlab turadigan qismi: *Soatning tili. Kompasning tili. Qo'ng'iroqning tili* kabilar. 8. Ko'chma. Tilga o'xshash, uchli narsa: *SHamol kuchayib olovning tili yana ham uzunlashadi* [Said Ahmad. Ufq] kabilar. Ta'sirchan, qittiq ta'sir qiladigan, o'tkir narsa (ko'pincha izg'irin sovuq haqida): *Urush, sovuq. Kech ko'zning izg'irin shamoli muzdek tili bilan yigit va qizning yuzini yalaydi* [O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi] kabilar. 9. Biror narsa, voqea va shu kabilarniig mohiyatini, sirini ifodalovchi vosita; yo'l, usul: *Formula tili bilan aytganda... Yerning tilini bilmoq. Rustam dehqonchilikning tilini yaxshigina o'rgangan edi* [Oybek. Oltin vodiyan shabadalar] va hokazo.

Yuqorida keltirilgan misollarda shira, urug', sho'ng'imoq, til NBlariking dastalbki ma'nolari nomlovchi ma'nolar bo'lsa, undan keyingi ma'nolari figural ma'nolardir. Bundan ko'rinadiki, nominativ ma'no va figural ma'no munosabati asosan polisemantik leksemalar ma'nolari uchun xarakterlidir. Polisemantik so'z ma'nolaridan faqt yasama (hosila) ma'nogina figural ma'no bo'la oladi. Lekin yasama ma'nolar doirasida ham figural ma'no tarkibi (semasi) nomlovchi ma'no tarkibi (semasi)ga nisbatan juda kam miqdorni tashkil etadi.

Semasiolog olimlar NBlar tarkibidagi leksik ma'noni nutq jarayonida reallashish holatiga ko'ra erkin ma'no va bog'lik ma'noga ham ajratadilar. Erkin ma'no deyilganda narsa, belgi, harakat bilan bevosita bog'lanadigan ma'no tushuniladi, uning reallashuvi ma'lum ksntekstga, co'zlar qurshoviga bog'liq bo'lmaydi. Masalan, "o'yin" leksemasining "ritmik harakatlar va mimikalar uyg'unligidan iborat san'at, raqs" degan ma'nosi erkin ma'no sanaladi, chunki uning reallashuvi uchun hech qanday ko'shimcha vosita talab qilinmaydi.

Xuddi SHuningdek, "chekmoq" leksemasining "tortmoq iste'mol qilmoq" ma'nosi ham erkin ma'no sanaladi. *Botirali papiros chekib odamlarning so'zini obdon eshitib, keyin gapirdi* [Said Ahmad. Hukm] kabilar.

O'zbek tilida "yugurmoq" fe'li polisemantik xarakterdagi NBlardan biri sanaladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu so'zning besh ma'nosi qayd qilingan. SHundan "irg'ishlab biror yo'nalishda tez harakat qilmoq" ma'nosi ham erkin ma'nolar qatoriga kiradi: - *SHoshma, bolam, kampir tandir tomonga yugurdi va xokandozda isiriq tutatib kelib Normatning boshidan aylantirdi* [O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari] kabilar.

O'zbek tilida fors-tojikcha "chap" so'zi ham polisemantik xususiyatga ega bo'lib, uning "gavdaning yurak joylashgan tomonidagi so'l, o'ngning aksi" ma'nosi erkin ma'nolar sanaladi. *Biz bular bilan tanishishni shu yerda qoldirib, ayvonning chap tarafidagi darcha oralab uyga kiramiz* [A.Qodiriy. O'tgan kunlar] kabilar.

O'yin, chekmoq, yugurmoq chap so'zlarining yuqorida keltirilgan ma'nolari hech qanday qo'shimcha vositaga bog'liq bo'lmagan holda har qanday matnda reallashadi. Huddi ana shu xususiyatiga ko'ra o'yin, chekmoq, yugurmoqqa, chap kabi NBlar tarkibidagi bu singari ma'nolarni erkin ma'no deb aytish mumkin bo'ladi.

NBlar tarkibidagi bog'li ma'no esa ma'lum bir so'zlar qurshovidagina reallashadi. Bu ma'no komponenti voqelik bilan bevosita bog'lana olmaydi. U yoki bu NBning bog'li ma'noda qo'llanish doirasi juda chegaralangan bo'lib, bu holat ana shu bog'liq ma'noni reallashtiradigan so'z yoki so'zlar qurshovidagina qo'llanadi. Masalan, yuqorida biz keltirgan chekmoq, yugurmoq chap kabi NBlarning quyidagi misollarda bildirgan ma'nolari bog'li ma'nolar sanaladi: *Qizniki qiyin bilan, o'g'ilniki o'yin bilan bitar* [Maqol]; *Onajon, g'am-g'ussa chekmang* [A.Muxtor. Opa -singillar]; *Mirvali SHavkat Rahimovga o'xshash obro'li, tajribali, so'zi har qanday joyda o'tilajak kishilarni qo'lga olish niyatida ozmuncha yugurmadi* [Said Ahmad. Jimjitlik]; *Hech gapdan hech gap yo'q, ikki yozuvchi yo san'atkor bir-biriga chap, bir-biri bilan qirpichoq bo'lib qolishadi* [O.SHarafiddinov. Ijodni anglash baxti] kabilar. Keltirilgan bu misollarda o'yin, chekmoq yugurmoq, chap so'zlariga xos ma'no ular bilan birga qo'llanib, sintaktik qurshov hosil qilayotgan *bilan bitar, g'am-g'ussa, qo'lga olish niyatida, bir-biriga* so'zlari yordamida reallashmoqda, ya'ni bu ma'nolarning

reallashuvi matnda ana shu so'zlarning qo'llanishi bilan bog'liq. SHu sababli bu ma'nolar bog'li ma'nosanaladi.

Demak, NBlarning leksik ma'no komponenti ba'zan nutqdan tashqarida ham mavjud bo'ladi va u leksemaning semantik strukturasida albatta, ishtirok etuvchi komponent sanaladi. Bundan tashqari NBlarning ma'no komponentlari uzual ma'no va kontekstual (matniy) ma'no ko'rinishiga ega bo'ladi. Uzual (bu lotincha usus - odat, qoida so'zidan olingan) ma'no deyilganda "so'zda lug'aviy ma'no sifatida bor, umum tomonidan qabul etilgan, umuman qo'llaniladigan ma'no" tushuniladi.

Masalan, *bosh* so'zining "tananing bo'yindan yuqoriroq qismi", "boshliq", "rahbar" ma'nolari; *katta* so'zining "hajm, o'lchami nisbatan ortig'i ulkan", "yosh jihatdan ortiq" ma'nolari uzual ma'nolar sanaladi.

Ma'lumki, ko'p ma'noli - polisemantik so'zlar gapda biror ma'nosi bilan ishtirok etadi, u yoki bu ma'noda qo'llanadi Gap, kontekst - matn shu ma'noni konkretlashtirishga hizmat qiladi. Masalan: *Xayotxon bechora ip eshib, 'marvaridlarni terishga o'tirdi* [M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha]. Tarmoq leksemasi o'zbek tilida ko'p ma'noli xususiyatga ega. Uning ma'nolaridan biri "qatorlab tizmoq taxlamoq"dir. Keltirilgan gap (matn)da tarmoq fe'lining shu ma'nosi reallashmoqda. Bu ma'no o'sha tarmoq so'zining o'zida bor bo'lib, matn (kontekst)da xuddi shu ma'nosi bilan reallashmoqda. Demak, so'zning aslida mavjud bo'lib, kontekst (matn)da aniq ajraladigan ko'p ma'nolaridan biri leksik ma'no sifatida kontekstual (matniy) ma'no bo'laveradi. SHunga ko'ra reallashuvi kontekst (matn)ga bog'liq kontekst doirasida bo'ladigan ma'nogina kontekstual (matniy) ma'no deb yuritiladi. Masalan, *kavak* NBning quyidagi uch ma'nosiga e'tiborni qarataylik: 1. *Omburing qo'lingda, bir kavakdan haydasa, Goshqa kavakda tish sug'urib ayshingni qilaverasan* [A.Qahhor. Og'riq, tishlar]. 2. *Qizimni shu yerda bir klinikaga joylashgirib qo'yishning iloji bormikan deb boshimni urmatan kavak qolmadi* [N.Aminov. Yelvizak]. 3. *Tavba, ajoyib. Yoshim shungacha kelib bundaylarni endi eshitdim. Butun umr kavakda o'tdi* [Oybek. Navoiy] kabilar.

Kontekstual ma'no kontekst (matn)ga bog'liq, bo'lsa-da, lekin uni faqat "kontekstga xos ma'no" deb tushunmaslik kerak, chunki bu ma'no ham so'zning o'ziga xos ma'nosi sanaladi, ya'ni kontekstual ma'noning potentsial imkoniyati ham

shu so'z, NBning o'zida mavjud bo'ladi. Aks holda, masalan, yuqorida biz keltirgan kavak NBning ma'nolarini uning o'rnida xohlagan NBni qo'llash bilan ifoda etish mumkin edi. Kontekst (matn) so'zdagi ana shu potentsial, yashirin imkoniyatni ruyobga chiqaradi, bu imkoniyat kontekst doirasida voqelikka aylanadi.

2.3. Nomlovchi birliklarning pragmatik vazifasi

So'zlovchining belgiga bo'lgan munosabati, to'g'rirog'i, so'zlovchining belgi orqali ifodalanayotgan ob'yektga bo'lgan munosabati pragmatik sema sanaladi. Denotativ va signifikativ semalar qatorida pragmatik semaning ajratilishi Ch.Morris tomonida semnotikaning semantika, sintoktika va pragmatikaga bo'linishi bilan bog'liqdir. Pragmatik sema ko'pincha leksema mazmuniy mundarijasidagi baho semasi orqali namoyon bo'ladi. Masalan, gapirmoq, so'zlamoq, do'ng'illamoq, shang'imoq, vaysamoq, g'ingshimoq singari leksemalar "nutqiy faolyait ko'rsatish" semasi bilan bir umumiy paradigmaga birlashsa ham, lekin ular nutq faoliyati ko'rsatayotgan sub'ektga so'zlovchi sub'ektning sub'ektiv munosabati, ijobiy yoki salbiy baho semasining mavjudligi, yoki bu semaga betarafligi bilan bir biridan farq qiladi. Dastlabki ikki leksema bu semaga betarafligi qolganlari esa salbiy bahoga egaligi bilan farq qiladi.

Ayrim mualliflar tomonidan (xususan, T.G.Vinokur, M.I.Konika tomonidan **uslubiy sema** ham ajratiladi. Uslubiy sema leksemalarning chegara semasi bo'lib, uning muayan uslubga hoslab turuvchi sema sanaladi).

Shunday qilib, leksemaning mazmuniy mundarijasi ko'p pog'onali bo'lib, u atash (nominativ), sintagmatik struktur, paragdigmatik struktur, pragmatik, uslubiy semalardan tashkil topadi. So'nggi sema leksemalarning chegara semasi bo'lib, barcha leksemalarda qo'llanilishi shart emas.

Leksikaning sistemaviylik tabiat yana leksemalar o'rtasidagi munosabatlar namoyon bo'ladi.

Til har bir choki boshqalari bilan bog'langan ulkan bir to'qima sanaladi. Til birliklarining mohiyati ularning munosabati orqali namoyon bo'ladi. Shunday ekan til birliklari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish ularning sistemaviyligini

ochishda katta ahamiyatga ega. shuning uchun ham sistemaviy tilshunoslikning otasi hisoblangan F.de Sossyur munosabatlarni o'rganishga katta ahamiyat bergan edi.

Til kishilar o'rtasida faqat aloqa vositasigina emas, balki til egalarining ma'naviy va madaniy boyliklarini o'zida asrab-avaylab kelajak avlodga etkazuvchi, tinglovchiga emosional-ekspressiv ta'sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Uning birinchi funksiyasi kommunikativlik, ikkinchi vazifasi kummulyativlik, uchinchi esa ekspressiv vazifa sanaladi. Bizning ajdodlarimiz filologiya fani shakllangan paytdayoq tilning uchinchi funksiyasiga katta e'tibor berganlar, so'zlarning badiiy-estetik funksiyasini o'rganish ularning diqqat markazida bo'lgan.

XIX asrning o'rtalaridan boshlab struktur tilshunoslikning rivojlanishi va tilning transendent hodisalardan xoli bo'lgan immanent birliklardan tashkil topgan butunlik sifatida talqin qilinishi natijasida tadqiqotchining asosiy e'tibori tilning ichki strukturasi pragmatik va konnotativ ma'nolardan ajratgan holda, sof munosabatlar sistemasi sifatida tadqiq etishga olib keldi. Natijada tilning emosional-ekspressiv funksiyasini o'rganish nazardan chetda qoldi. Vaholanki, tilning ichki strukturasi tilshunoslik uchun qanchalar zarur bo'lsa, uning emosional-ekspressiv funksiyasini o'rganish ham shunchalar ahamiyatlidir.

M.Mamadalieva konnotatsiya pragmatik hodisa sifatida baho munosabati bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi¹. Z.Mamarajabova esa konnotativ ma'noning ekspressiv bo'yoq asosida belgilanishini, ya'ni uning ekspressivlikka ishora qilishini qayd etadi². N.Ahmedova har qanday konnotativ ifodada denotativ ma'noning saqlanishi, so'zlovchi o'zining pragmatik maqsadini namoyon etishda

¹ Мамадалиева М. Номловчи birliklarнинг ichki ma'nolari // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2000. – №. 6. – Б. 40-42.

² Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари: Филол. Фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – Б. 18.

ana shu sema (belgi)dan uzoqlashmasligini ta'kidlaydi¹. E.Qilichev, B.Qilichevlar esa konnotativ ma'noning (K) so'z semantikasidan (S) denotativ ma'no (D) ajralgandan keyin hosil bo'lgan ayirmaga tengligini ko'rsatadilar. Ya'ni: $K = S - D$. Ularning qayd etishicha, so'zning konnotativ ma'nosi nafaqat kontekstda, balki muayyan sinonimik qatorda ham yuzaga chiqishi mumkin. Bunda konnotativ ma'no so'zlarning paradigmatic munosabati asosida belgilanadi². Shu nuqtai nazardan, tilshunoslikda konnotatsiyaning ingerent va adgerent turlari farqlanadi. Ingerent konnotatsiya bu – so'zning kontekstdan tashqari olingan holatda anglanadigan, adgerent konnotatsiya – so'zning ma'lum kontekst asosida anglashiluvchi konnotativ ma'nosidir³.

Shuningdek, A.Sobirov konnotativ ma'noni leksik ma'noning vazifasiga ko'ra bir turi sifatida⁴, Z.Qodirov poetik matndagi poetik hosila sifatida⁵, H.Ne'matov va R.Rasulovlar semema tarkibidagi ifoda, tasvir, qo'shimcha ma'no semalari (konnotativ semalar) sifatida izohlaydilar⁶.

Yuqorida bayon etilganlar asosida xulosa qilish mumkinki, konnotatsiya denotativ ma'no ustiga qurilib, unga qo'shimcha ma'no (ekspressiv-emosional ma'no) yuklovchi hamda nutq sub'ektining voqelikka baho munosabatini ifoda etishga xizmat qiluvchi tilning semantik-pragmatik aspektidir.

¹ Ахмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи. Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 14.

² Қиличев Э., Қиличев Б. Коннотатив маъно ва унинг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. – №. 6. – Б. 68.

³ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1969. – С. 523; Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982. – Б.11.

⁴ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 51.

⁵ Қодиров З. Синтактик бирликларнинг коннотатив аспекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2003. – №. 6. – Б. 40-41.

⁶ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 58.

Tilshunoslikda konnotatsiya tushunchasi bilan uzviy bog'liq, ba'zan bir xil hodisa sifatida qaraluvchi emosional-ekspressivlik tushunchasi uzoq yillar davomida stilistikaning o'rganish ob'yekti sifatida tekshirildi. Konnotatsiyaning nutqiy vaziyat, kontekst yordamida reallashuvchi hodisa ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, u pragmatikaning tadqiqot ob'yekti ekanligini anglab etamiz.

O'zbek tilshunosligida til birliklarining pragmatik tabiatini o'rganishga dastlab XX asrning 80-yillarida e'tibor qaratildi. Bu davrda A.Nurmonov, N.Mahmudovlarning ko'makchilar hamda ritorik so'roq gaplarning presuppozision xususiyatlari tavsifiga doir ilmiy maqolalari e'lon qilindi¹. Bu masala keyingi davrlarda ayrim morfologik birliklar hamda matn tahlili misolida maxsus tadqiqot ob'yekti bo'ldi².

Pragmatika tilshunoslik fanining yangi sohalaridan bo'lib, u bir qancha masalalarni o'z ichiga oladi. Lingvistik pragmatikaning umumnazariy masalalari quyidagilardan iborat: til birliklarining nutq vaziyati, kontekst bilan bog'liq jihatlari, kishilar o'rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi nutqiy etiketlar, nutqning ijtimoiy xoslanishi, ifodaning sub'ektiv modal aspektiga aloqador kirish, baho bildiruvchi so'z va vositalar, insonning ichki ruhiyatini ifoda etuvchi diskurs hamda presuppozisiya hodisasini o'rganish³.

Konnotatsiya ham pragmatikaning o'rganish ob'yekti sifatida nutq jarayonida yuzaga chiqadi. Uning yuzaga chiqishida turli xil til birliklari xizmat qiladi.

Ma'lumki, leksema tilning asosiy birligidir. Har qanday leksema tovush va ma'no tomonlarining birligidan iborat bo'ladi. Leksemaning ma'no tomoni semema sanalib, u ham muayyan elementlardan – semalardan tashkil topgan

¹ Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1986. – №6. – Б. 28-31; Нурмонов А. Кўмакчилик конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. – №6. – Б. 42-45.

² Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. – 23 б.

³ Ҳақимов М. Кўрсатилган манба Б.15-17

nisbiy butunlik sanaladi. Demak, leksema sememasining ichki tuzilishi semalardan tashkil topadi. Ana shu semalar o'rtasidagi munosabat leksemaning mazmuniy tuzilishini, boshqacha aytganda, mazmuniy mundarijasini tashkil etadi.

G'.Qambarov ham baho so'zlovchining bayon qilinayotgan ob'yektga munosabatini bildiruvchi vosita ekanligini ko'rsatadi. Olimning fikricha, baho munosabati nominativ ma'no ustiga qo'yilgan aksiologik ma'no orqali yuzaga chiqadi¹.

Sh.Rahmatullaevning fikricha, leksemaning mazmun planiga atash ma'nosidan tashqari, stilistik, nutqiy xoslanish kabi belgi-xususiyatlar ham kirib, bular barchasi birgalikda sememaning semantik strukturasini hosil qiladi. Albatta, leksemaning mazmuniy mundarijasida atash ma'nosi bilan birga so'zlovchining munosabati, ya'ni bahosini ifodalovchi semani ham inobatga olish lozim. Sh.Rahmatullaev leksema orqali nomlanayotgan voqelikka munosabat bildirish belgisini baho semasi sifatida o'rganadi²

Bizningcha ham, so'z ma'nosiga yuklanuvchi qo'shimcha ma'no so'zning semantik strukturasida o'zining alohida o'rniga ega bo'lgan komponentdir. Demak, so'zning borliqdagi narsa, hodisa, belgi va shu kabilar haqida ma'lumot beruvchi komponenti atash (nominativ, denotativ) ma'no bo'lib, u so'z semantikasidagi birlamchi va asosiy komponentdir. Konnotativ ma'no esa atash ma'nosining nutqiy imkoniyatlarini, so'zlovchining shaxsiy munosabatini yuzaga chiqaruvchi ma'no sifatida ahamiyatlidir. Har qanday mustaqil so'zning semantik strukturasida atash ma'nosining bo'lishi tabiiy, biroq emosional-ekspressiv o'ttenka so'z semantik strukturasida doimo bo'lishi shart emas.

Ko'rinadiki, leksemaning semantik strukturasini murakkab tuzilishga ega bo'lib, atash, konnotativ, pragmatik, uslubiy singari semalarni o'z ichiga oladi.

¹ Қамбаров Ғ. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида): Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 5.

² Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006. – Б.51.

So'z semantik strukturasi asosiy komponenti atash ma'nosi bo'lib, uning ustiga qurilgan qo'shimcha ma'nolar konnotativ ma'nodir.

III bob. Nomlovchi birliklar ma'no tarkibining tahlili masalalari

3.1. Nomlovchi leksemalarning denotativ va konnotativ semalalari

Semasiologiya fanida NBlar sememasi tarkibidagi semalar darajasiga ko'ra ham tasnif qilinadi. Bunga ko'ra u yoki bu semema semalari birlashtiruvchi (integral) semalarga va farqlovchi (differentsial) semalarga ajratiladi. Akademik A.Hojiev integral semalarni "umumiy sema" deb nomlaydi. Olimning talqiniga ko'ra, "umumiy sema bir semantik maydondagi sememalarning tutashtiruvchi semasidir"¹. Masalan, tilimizda mavjud *novcha, uzun, uzunchoq, daroz, baqaloq, cho'zinchoq*; kabi NBlarning umumiy semalarini ~~ishlatib~~ ko'raylik.

NOVCHA. Bu NB "bo'yi baland, daroz, uzun" ma'nolarini bildiradi. *Hokimning novcha, haybatli qomati oldida Teshaboy ham odamlar nazaridan*

1

chetda emas edi (M.Ismoilov. Farg'ona tong otguncha); *Novcha teraklar uchida oyning kumush parchasi suzadi* [Said Ahmad. Qadrdon dalalar] kabilar.

UZUN - bu NB "bo'yiga qarab cho'zilgan, cho'ziq" ma'nolarini ifodalaydi. *Sayli qalin va uzun kipriklarini yalt etib ko'tarib, dugonasiga qaradi* [S.Anorboev. Sayli] kabilar.

UZUNCHOQ - bu NB "eniga qaraganda bo'yi ancha cho'ziq, uzun, cho'zinchoq" ma'nolarini bildiradi. *Bir uzunchoq tokchada kattagina oyna bilan qizil gulli patnus yonma- yon turibdi* [P.Tursun, O'qituvchi] kabilar.

DARUZ - bu NB "bo'yi baland, novcha, bo'ychan, bo'ydor" ma'nolarini bildiradi. *Kuyov tomondan oriqlar daruz chayir bir xotin bel bog'ladi* [Oybek. Kutlug' qon] kabilar.

BAQALOQ - bu NB "eni bo'yiga nomutanosib, yo'g'on, dumaloq semiz" ma'nolarini bildiradi. *Baqaloq yigit. Baqaloq qo'llar* kabilar.

CHO'ZINCHOQ - bu NB "bo'yi eniga nisbatan ancha uzun, cho'ziq, uzunchoq" ma'nolarini bildiradi. *CHO'zinchoq yuz. CHO'zinchoq qovoq-CHO'zinchoq hovli* kabilar.

Ko'rinadiki, *novcha, uzun, uzunchoq, daruz, baqaloq, cho'zinchoq* kabi NBlarining barchasi "me'yor" semasi bilan umumiylikka ega bo'lib, yaxlit bir LSGni tashkil etadi.

Semasiologiyada NLarning denotativ va konnotativ semalari bir-biriga qarama-qarshi (zid) qo'yiladi. Chunki *denotat* lotincha *denotate* - belgilamoq so'zidan olingan bo'lib, "til birligi (masalan, so'z) yordamida nomlanuvchi (ataluvchi) voqelik narsa-buyum" ma'nosini bildiradi. Masalan, *yuz, aft, bashara, chehra, turq* so'zlari bir predmet (*denotat*)ning turli nomlari sanaladi. *Denotat* bilan bog'liq va uni bevosita bildiruvchi ma'no denotativ ma'no deb yuritiladi. Bundan ko'rinadiki, denotativ ma'no konnotativ ma'noning zidi bo'lib, shunga asoslanadi. SHuning uchun "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari" (1995) nomli kitobda NBlarining atash semalari (denotativ semalar) uning ifoda, tasvir, qo'shimcha ma'no semalari (konnotativ semalar)ga qarama-qarshi qo'yilgan. Negaki, atash semalari ob'ektiv borliqdagi narsa-buyum, belgi-xususiyat, miqdor kabilarni atovchi,

nomlovchi semalar bo'lsa, ifoda semalari deyilganda NBlar tarkibidagi atash semasidan tashqari turli qo'shimcha ma'nolarni (uslubiy buyoqni, shaxsiy munosabatni, qo'llanish doirasini) anglatuvchi semalalar tushuniladi. Masalan, *tuzuk, dunst, yaxshi, ajoyib* leksema sememalarining belgini darajasiga ko'ra ajratuvchi ziddiyat belgilari uning atash (yoki denotativ) semalaridir.

Tildagi NBlarning ma'no tarkibini o'rganishda tilshunoslikda semantikaning konnotativ jihatida tushunchasiga alohida e'tibor qilinadi. Konnotatsiya semantikaning ekspressiv qiymatga ega bo'lgan uzvi (elementi) sifatida nomlash jarayonlaridagi borliqni baholagan holda idrok qilish va aks ettirish maxsuli sanaladi. Tadqiqotchi M.Mamadalieva ham konnotatsiyaning asosiy vazifasi so'zlovchining ifodalayotgan predmetga sub'ektiv munosabatini aks ettirish asosida ta'sir qilish, ta'sirchanlikni ta'minlash ekanligini alohida ta'kidlaydi.

H.Ne'matov va R.Rasulovlar o'zbek tili leksikasini uzviy (komponent) tahlil asosida yoritar ekanlar, so'z ma'nosining tarkibidagi ifoda semalariga "Semema tarkibidagi atash semasidan tashqari turlicha qo'shimcha ma'nolarni (uslubiy buyoqni, shaxsiy munosabatni, qo'llanish doirasini) anglatuvchi semalardir" deb ta'rif beradilar.

Til o'zining estetik vazifasini bajarishida ayni shu ifoda semalari - konnotativ ma'nolar favqulodda muhim rol o'ynaydi. Ifoda semalari ham xuddi nomlash (atash) semalari kabi leksemalar paradigmasi orqali aniqlanadi. Masalan, *yuz, aft, bet, bashara, turq, chehra, jamol* leksik paradigmalari tarkibida atash (nomlash) semalalari bir xil, umumiy "odam boshining old tomoni, old tomondan ko'rinishi", degan ma'noni bildiradi. Ammo bu qatordagi *yuz, bet, aft, bashara, gurg* leksemalari so'zlovchi salbiy munosabatining darajasiga ko'ra o'zaro darajali ziddiyatga ega. Bu o'rinda salbiy munosabat "aft"dan "turq"ga tomon o'sib boradi. *Yuz, chehra, jamol* NBlarida esa aksincha, ularda ijobiy munosabat semalari mavjud. Bu holat O'TSILda to'g'ri ta'kidlab ko'rsatilgan. Bundan tashqari mazkur lug'atda ana shu leksik paradigmaga mansub *diydor, oraz, uzor, ruhsor* singari nominativ birliklarning denotativ va konnotativ semalari qayd qilingan hamda "diydor"ning faqat "ko'rishmoq", "to'ymoq" singari bir-ikkita leksemalar bilan sintagmatik munosabatga

kirishuvi, *uzor, oraz, ruhsor* NBlari esa qo'llanish darajasiga ko'ra eskirganligi, arxaiklashganligi ta'kidlangan: *Eson-omon yurtga qaytaylik, bola-chaqa, yorog'aynilarning diydorini ko'raylik deb yaxshi tilak qilsalaringchi* [Oybek. Quyosh qoraymas]; *Orazingni. ey mohvash bog' aro namoyon qil* [Muqimiy]; *Ko'nglida go'yo nigori keladi, hayotblaxsh uzori uni baxtiyor qiladi* [M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha]; *Baxtu iqboling quyoshi chexra ochdi, sochdi nur, Gullatib suhbatni, yashnab lola ruhsoring o'ltirur* [Habibiy] kabilar.

Darajalanish hodisasi tilning barcha sathlarida keng tarqalgan. Tilshunos olim Odiljon Bozorovning to'g'ri ta'kidlashicha, "borliq rang barang va cheksiz o'zgarib turuvchi narsa, hodisalar tizimlaridan iborat bo'lganligi uchun bularga xos darajalanishlar ham o'ta xilma-xil va uzluksizdir... Borliqqa xos bo'lgan uzluksiz darajalanish hodisasi va uning tildagi in'ikosi oddiydan murakkabga, noto'liq ko'rinishdan nisbiy to'liqlikka tomon yo'nalgan inson bilish yo'li bosqichlarida turlicha o'rganishlarga ega bo'lgan".

Miqdor va sifat o'zgarishlarining tadrijiyligi zaminida tabiiy-ijtimoiy uzluksizlik yohud turli xil darajalanishlar hosil etib rivojlangan borliq ko'z in'ikosi hisoblangan til birliklarida ham darajalanganlik belgilarini namoyon etadi. Buni taniqli tilshunos olimlar ham o'z asarlarida alohida ta'kidlaganlar.

O'zbek tili leksik antonimlarini maxsus tadqiq etgan R.Shukurovning eslatishicha, so'zlarning antonimligini ko'rsatuvchi belgilardan biri oraliq tushunchalar yoki mantiqiy markazlarning mavjud (kechagi - bugungi - ertangi, o'tgan - hozirgi - kelasi kabi) bo'lishidir. Ko'p hollarda qarama-qarshi qutblar orasida bir necha tushunchalar yotishi mumkin. Bunday hollarda mantiqiy markazdan teng o'z oralig'ida yotgan dag'al tushuncha va ularni ifodalovchi so'zlar bir-biri bilan antonim bo'lishi mumkin. Masalan: qahqaha - kulgi - kulimsirash - yig'lamsirash - yig'i — faryod qatorida qahqaha ~ faryod, kulgi - yig'I kulimsirash - yig'lamsirash; nurafshon yorug' - qorong'i - zimiston qatorida nurafshon - zimiston yorug' . - qorong'i; saraton - issiq - sovuq t qahraton qatorida saraton - qahraton issiq - sovuq- kabi antonimlar shular jumlasidandir. R.Shukurov haqli ravishda tilshunoslikda mantiqiy markaz bilan bog'liq masalalar atroflicha o'rganilishi lozimligini ta'kidlab o'tadi.

R.Jabborova va S.Riyosovlarning o'zbek tili asliy sifatleri komponent tahliliga bag'ishlangan maqolasida belgi darajasi semasi chiroyli - ko'rkam - go'zal - zebo so'zlar. Nutq izchil ma'noviy bog'lanishlarini tashkil etishi, bunda belgining me'yoriy (neytral), ozroq, oz, ko'p, eng ko'p kabi ko'rinishlari qolipidagi sifatlarining har biriga ichki ma'noviy tarkibiy (komponent) qism sifatida xoslanib ketganligi ko'rsatib o'tiladi.

Prof.E.Qilichev o'z ishlarida darajalanishining sinonimlarga oid bo'lgan denotativ va konnotativ ma'nolarga xosligi haqida fiqlar bildiradi.

Prof.SH.Rahmatullaev frazemalar tahliliga bag'ishlangan bir ishida emotsiyaning kuchli-kuchsiz daraja semasini ajratish zarurati borligini ta'kidlab, "ta'bi xira", "dili siyoh", "bag'ri qon" frazeologizmlarining farqlarini xafalik belgisining boshlang'ich bosqida (ta'bi xira), normal holatdan yuqoriroq bosqich (dili siyoh), eng yuqori bosqich (bag'ri qon) darajalanishlarida ekanligini, ma'nolardagi bu kabi qator farqlanish yuqoriidagi uch frazemaning o'zaro sinonim emasligini, ushbu holatlardagi kabi farqlovchi semani ma'no gradatsiyasining semasi deb nomlash to'g'riroq ekanligini ko'rsatadi.

E.Begmatov, H.Ne'matov va R.Rasulovlarning "Leksik miqrosistema va uning tadqiqot metodikasi (sistem leksikologiya tezislari)" nomli dasturiy maqolasida lug'aviy darajalanish yoxud graduonimiya leksik ma'nolari ma'lum belgi-xususiyatning turli darajalari bilan bog'langan leksik-semantik guruh, (LSG) sifatida ajratiladi. O'zbek tili giponimik leksikasini sistem tahlil qilishga harakat qilgan R.Safarova o'z tadqiqot, maydonida yosh belgisining darajalanish bilan bog'liq, bo'lgan graduonimik qatorlarni (qo'zi - qo'y, buzoq – sigir, jo'ja - tovuq kabi) yoritib o'tgan edi.

Lug'aviy graduonimiyaga M.Fayzullaevning "Rus va o'zbek tillari ruhiy holat fe'llarining tipologik xususiyatlari" deb ataluvchi nomzodlik dissertatsiyasi maxsus o'rin ajratiladi. Rus va o'zbek tillari ruhiy holat fe'llari asosida o'tkazilgan lug'aviy darajalanishlarga oid bu izlanishda graduonimik qator,

R.Rasulov va M.Narzievalarning "Leksikologiyani o'rganish" nomli qo'llanmasida leksik zidlanish (oppozitsiya)lar orasida gradual munosabatning keng

tarqalganligi, xususan, belgi darajasi semasining ko'p NBdarda takrorlanuvchanlikka ega ekanligi ko'rsatib o'tiladi.

Biz o'rganayotgan NBlar orasidagi darajalanish ham ana shu lug'aviy darajalanishning tarkibiy qismi sanaladi.

Darajalanish munosabatlari bilan bog'langan NBlar qatorini quyidagi ikki tamoyilga asoslangan holda o'rganish mumkin: a) sof lisoniy (til) asoslari; b) ekstralingvistik (g'ayrilisoniy) asoslar.

3.2.Lug'aviy qatorlarni ajratishning ekstralingvistik asoslari

G'ayrilisoniy asoslar tamoyilining mohiyati shundaki, borliqdagi narsa-buyum, belgi-xususiyatlarda sifat farqlari bilan bir qatorda miqdoriy farqlar ham mavjud. CHunonchi, istagan turdagi organizm o'sadi, rivojlanadi. Uning o'sib rivojlanishi zamon (vaqt yoki yosh) bilan bevosita bog'likdir. Masalan, odam go'daklik yoshlik navqironlik yetuklik qarilik holatlarini, o'simlik navnihollik, ko'chatlik, yetilganlik, quriganlik davrlarini boshidan kechiradi. Tabiatdagi rang va boshqa belgilar shunchalik xilma-xilki, bir butadagi ikki qizil gul bir-biridan rangining ochroq yoki to'qroq ekanligi bilan farqlanadi. Borliqdagi narsalar orasidagi bunday miqdoriy farqlar shunchalik rang barangki, ularni to'laligicha tavsiflab va sanab nihoyasiga yetish qiyin. Insonning faol ongi borliqdagi ana shunday miqdoriy farqlarni ma'lum darajada aks ettiradi. Til ongning shakli bo'lgani uchun u ongda aks ettirilgan mana shunday miqdoriy farqalarni turli usullar (aniqlovchilar, miqdoriy ko'rsatkichlar, o'lchov birliklari va hokazolar) bilan, jumladan alohida NBlar bilan ham ifodalanadi. Masalan, tilimizda nihol — ko'chat -daraxt; ninni - chaqaloq,- go'dak – bola; buzoq - tana — g'unajin - sigir kabi NBlar tizimida gradual munosabatlar mavjudligi, ularning lug'atlarda berilgan izohida ham qayd etilgan. Jumladan, fikrimizning isboti uchun nihol - ko'chat - daraxt; ninni - chaqaloq - go'dak - bola NBlarining izohini ko'zdan kechiraylik.

NIHOL - bu NB "yosh novda yoki ko'chat" ma'nosini bildiradi. Bolani yoshdan asra, niholni boshdan asra [Maqol]; Yosh niholga ustalik bilan qilingan payvand tez amal oladi

[M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha] kabilar. Tilimizda shu leksema asosida "nozik nihol" iborasi hosil qilingan: *Nozik nihol daraxtlar*.

KO'CHAT - bu NB "ypyg' yoki qalamchadan o'sib chiqqan va boqqa joyga olib o'tqaziladigan yosh daraxt nihol" ma'nosini bildiradi. *Mana shu anjirning ko'chatini Iqoomjon CHorterakdan oldirib kelgan edi* [Said Ahmad. Ufq]

DARAXT - bu NB, "tana qo'yib, shox va novdalar chiqarib, tomir otib o'sadigan ko'p yillik o'simlik" ma'nosini bildiradi. *Mevali daraxt; Mevasiz daraxt: Olma daraxti*. Bu *daraxtlar* bir necha asr umr ko'rgan, zo'r dahshatli voqealar guvohidir [Oybek. Hyp qidirib] kabilar.

NINNI - bolalar nutqiga xos NB bo'lib, "yangi tug'ilgan bola, chaqaloq;" ma'nosini bildiradi. *Azimjonning onasi unga yangi ukacha - ninni olib keldi* [so'zlashuv nutqidan].

CHAQALOQ — bu NB "yangi tug'ilgan bola; go'dak" ma'nosini bildiradi. *Kimdir tez-tez gapirdi, dam erkakcha dam xotinchaga so'zlaydi, dam chaqaloq bo'lib "ingalaydi"* [Oybek. Qutlug' qon] kabilar.

GO'DAK - bu NB "emadigan, ko'krakdan ajratilmagan bola" ma'nosini bildiradi. *Esli bola.lar ham ko'rinmaydi*. Go'daklar esa beshigida, daraxtlar orasidagi belanchaklarda uxlab yotishadi [Oybek. Qutlug' qon] kabilar.

BOLA - bu NB "yangi tug'ilgan, hali ko'krakdan, ona bag'ridan ajratilmagan go'dak, chaqaloq" ma'nosini bildiradi. *Bola yig'lamasa, ona sut bermaydi* [Maqol]; *Tug'ilmagan bolaga beshik olma* [Maqol]; O'zbek oyim burchakda bola ko'tarib o'tirgan Zaynabdan chaqaloqni olib, uni jomni to'kib kelishga buyurdi [A.Qodiriy, O'tgan kunlar] kabilar.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinadiki, nihol, ko'chat va daraxt NBlari izohida "yosh" miqdoriy belgisiga ko'ra darajalanish holati ko'zga tashlanadi, ya'ni o'simlikning zng yoshi - nihol bo'lsa, uning o'sib, ulg'aygan shakli daraxt sanaladi. Xuddi shunday fiqrni ninni, chaqaloq, go'dak bola NBlari, haqida ham aytish mumkin. Lekin bu NBlar orasida "yosh" miqdoriy belgisi jihatidan farq unchalik katta emas, ya'ni ninni ham, go'dak ham, chaqaloq ham, bola ham beshikdagi kichik

yoshdagi bola, faqat oxirgi leksemada "yosh" miqdoriy belgisi biroz neytral xususiyatga egadir.

Xuddi shunday darajalanish munosabatini buzoq- tana - xunajin - sigir NBlari orasida ham ko'rish mumkin. Bu darajalanish holati leksemalarga lug'atlarda belgilangan izohlarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

BUZOQ - bu NB "*sigiming bolasi*" degan ma'noni bildiradi. Ola buzoq Yaxshi buzoq ikki onani emadi [*Maqol*]; Tirraqi buzoq podani bo'lg'atadi (*Maqol*); Podadan adashgan buzoqqa o'xshab, duch kelgan eshikka boshingni tiqaverasanmi? [*Oybek Quglug' qon*] kabilar.

TANA - bu NB "bir-ikki yoshli urg'ochi buzoq" ma'nosini bildiradi. *Tana boqmoq* kabilar.

G'UNAJIN - bu NB "ikki yoshdan oshgan urg'ochi buzoq" ma'nosini bildiradi. *Mulla Obidning tana boqib g'unajin qilish, g'unajinni qochirib sigirga aylantirish usuli jamoaga ikki yoqlama foyda yetkazadi* [A.Qodiriy. Obid ketmon] kabilar.

SIGIR - bu NB "urg'ochi qoramol" ma'nosini bildiradi. *Govmish sigir; Sigir sog'moq*, kabilar. Yuqorida keltirilgan buzoq - tana - g'unajin - sigir NBlari orasidagi darajalanishda ham "yosh" miqdoriy belgisi mavjud, bu NBlar orasida faqat "buzoq" leksemasida miqdoriy belgi umumiyroq xususiyatga ega. Tahlil qilingan buzoq - tana - g'unajin - sigir NBlari orasida ularni birlashtiruvchi integral sema urg'ochi" semasidir.

Biz tahlil qilgan nihol – ko'chat - daraxt; ninni - chaqaloq - go'dak - bola; buzoq - tana -g'unajin - sigir kabi NBlar tizimida mavjud gradual munosabatlar g'ayrilisoniy (ekstralingvistik) asosning in'ikosidir.

3.3. Lug'aviy qatorlarni ajratishning lisoniy asoslari

Bundan tashqari graduonimik lug'aviy qatorlarni ajratishning sof lisoniy asoslari ham mavjud. Lug'aviy darajalanishning sof lisoniy asoslari quyidagi ikki omil bilan bevosita bog'liqdir: a) ma'noviy omil; b) so'zlararo paradigmatic munosabatlar omili.

Lug'aviy graduonimik qatorlarni ajratishda ma'noviy omilning mohiyati shunda ko'rinadiki, bir qator NBlardagi atash-nomlash semalari tarkibida miqdorga - ma'lum bir belgining oz-ko'pligi, turli xil darajalarga ishora mavjud bo'ladi. Masalan, darcha - eshik - darvoza — qopqa NBlari ma'nolarining "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi izohlarni qiyoslash orqali bunga ishonch hosil qilish mumkin:

DARCHA - bu NB "ilgari vaqtlarda deraza vazifasini o'tagan bir yoki qo'sh tabaqili eshik" ma'nosini bildiradi. *Darchasi berk bo'lganidan uy ichi qoronig'iroq edi* [Oybek. Qutlug' qon]; *Darvoza... yonida kichkina darchasiga sarg'imtil qog'oz yopishtirilgan hujra bor* [H.G'ulom. Mash'al] kabilar.

ESHIK — bu NB "uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishida o'rnatilgan ochib-yopib turiladigan moslama" ma'nosini bildiradi. *O'ymakor eshik, Kabinet eshigi, Ko'cha eshigi, hovli eshigi, Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan.* (Maqol) *Bog'cha eshigini ochib qo'yaman, bamaylahotir. Kuyovni bo'lsa uzoq bir joyga jo'natdim* (Hamza Maysaraning ishi) kabilar.

DARVOZA - bu NB "xovli qo'rg'on, qit'a, zavod va shu kabilarga kiriladigan, ochilib yopiladigan katta eshik" ma'nosini ifodalaydi. *Taxta darvoza; Temir darvoza; Hasanali darvozani yopib, darvozani zanjirlab keldi* [A.Qodiriy. O'tgan kunlar]; *Darvozaning bir tabaqasi ochiq edi* [Oybek. Qutlug' qon] kabilar.

QOPQA - bu NB eskirgan, qo'llanish doirasi chegaralangan bo'lib, "darvoza" ma'nosini bildiradi: *SHahar qopqasi; O'zingni kamsitma, Toshkentning o'n ikki qopqasiga borilsa, kimning yeri - Qurbonhojining yeri-ku!* [Oybek. Qutlug' qon] kabilar, Keltirilgan darcha - eshik - darvoza - qopqa NBlarining lisoniy izohlarida atash, nomlash semalari tarkibida miqdoriy ko'rsatkichlarga, xususiyatlarga ishora qiluvchi semalar, tarkibiy qismlar yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. Jumladan, darcha NBlari tavsifida kichkina va eshikcha so'zlari, darvoza va qopqi NBlari izohida esa katta so'zi xuddi shunday xususiyatlarga ishora qilib kelmoqda.

SHunday qilib, darcha — eshik — darvoza — qopqa NBlariing ma’no tarkibidagi miqdoriy semalarni quyidagicha darajalanish qatoriga joylashtirish mumkin:



05.05.2014

7

Bundan ko’rinadiki, NBlarning denotativ ma’nosida darajalanuvchi belgi xilma-xil va rang barang xususiyatga egadir. Lisosiy graduonimik lug’aviy qatorlarni (guruhlarni) ajratish uchun ma’noviy omil o’zaro yaqin tushunchalarni ifodalovchi NBlar sirasida bu qatordagi har bir NBda ma’lum bir belgining turlicha darajalanishida, miqdorning oz-ko’pligiga ishora mavjudligida namoyon bo’ladi. Graduonimik qatorlarni ajratishning sof lisoniy tayanch nuqtasining ikki omilidan birinchisi - ma’noviy omilning o’zaro gradionimik (darajalanish) munosabatlari bilan bog’langan NBlarni alohida lisoniy birlik (qatorlar, LSG, LMG)larga birlashtirish imkonini beradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, lug’aviy darajalanishning ikkinchi sof lisoniy asosi so’zlararo paradigmatic munosabatlar omilidir. Ma’lumki,. F.de Sossyur lisoniy mikrosistema va umuman lisoniy birliklar orasidagi paradigmatic (assotsiativ, bir-birini eslatib turish, o’xshashlik) munosabatlarini lisoniy birliklar, jumladan NBlar uchun eng asosiy munosabat sifatida baholagan edi. F.de Sossyur talimotiga muvofiq, bir paradigma tarkibiga kiradigan birliklar quyidagi xususiyatlarga ega bo’lishi kerak: a) paradigmadagi biror birlik eslanganda, shu paradigмага kiruvchi boshqa a’zolar (birliklar) ham xotirlanishi (esga olinishi)

zarur; b) har bir kokret nutq sharoitida o'zaro paradigmatic munosabatlarda turgan birliklardan, ya'ni paradigma a'zolaridan bittasi tanlanadi; v) bir paradigmanning a'zolari o'zaro o'xshashlik bilan birga har bir a'zo ikkinchisidan qaysidir bir belgisi bilan farqlanib turadi; g) paradigma a'zolari - nutqida bir mavqeda kela olib, bir-birini ma'lum -holatlarda almashtira olishi, o'rnini egallashi mumkin.

Lisoniy paradigmaga va uning a'zolariga nisbatan F.de Sossyur tomonidan quyilgan bu talablar keyingi bir asr mobaynida deyarli o'zgarishsiz saqlanib kelmoqda:

1.Paradigma a'zolarining bir-birini eslatib turishi. Yuqorida biz tahlil qilgan darcha - eshik - darvoza - qopqa NBlari qatoridagi a'zolar istiqomat, yashash, turish uchun mo'ljallab to'silgan, bir muhitni ikkinchi muhit bilan bog'lab turuvchi yoriq moslama tushunchasi atrofida birlashadi. Mana shu yoriq yoki moslama tilimizda darcha —eshik - darvoza – qopqa NBlari ma'noviy tomonining asosi bilan bog'lanadi. Biz hech qachon darchani eshik bilan, eshikni darvoza bilan almashtira olmaymiz lekin shu bilan birga bu NBlarning ma'no tomonini birini ikkinchisiz tasavvur eta olmaymiz.

2. Nutqda paradigma a'zolaridan birini tanlash. Voqelikda yashash, istiqomat qilish uchun mo'ljallab to'silgan, muhitni boshqa bir muhit bilan bog'lab turuvchi o'yiqliq moslamaga nisbatan darcha - eshik - darvoza - qopqa NBlaridan muayyan nutq sharoitida istalgan biri, faqat bittasi qo'llanilishi mumkin. Chunki ma'lum bir sharoitda biz "Bu eshik" desak shu NB bilan ataladigan narsaning darcha yoki darvoza emasligiga ham ishora qilgan bo'lamiz.

3. Paradigma a'zolarining o'xshashlik bilan birga xususiy farqlarga ega bo'lishi. Yuqoriida ko'rib o'tilganlar asosida ayta olamizki, darcha - eshik — darvoza - qopqa NBlaridan har biri umumiy o'xshashlikka ega (o'yiqliq va moslama), lekin shu bilan birga bu qatordagi har bir NB o'z xususiy ma'noviy farqiga ega, ya'ni darcha - eshik - darvoza - qopqa NBlaridan har biri qolganlarini inkor qiladi va xususiy ma'nosi bilan qolgan NBlardan ajralib turadi. Darcha NBda bu xususiy ma'no "eshikdan kichikroq" semasi bilan belgilansa, darvoza NBda "eshikdan kattaroq"lik semasi bilan, eshik NBda esa "darchadan kattaroq",

"darvozadan kichikroq" semasi bilan, qopqa so'zida "eskilik bo'yog'iga ega, darvozaga teng" semasi bilan belgilanadi. Agar darcha - eshik - darvoza,- qopqa NBlarini "o'yiqlik va moslama" ma'nosi umumiy qatorga birlashtirsa, "nimadandir kichik yoki katta" xususiy belgilari ularning har birini boshqalaridan farqlab ajratib turadi.

4. Paradigma a'zolarining nutqda bir xil mavqeni egallay olishi Darcha - eshik - darvoza NBlaridan istalgan birining nutqiy hosilalarda bir xil mavqega ega bo'lishini quyidagi misollar ham yaqqol tasdiqlaydi:



05.05.2014

6


Yuqoridagi tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, graduonimik lug'aviy qatorlardagi so'zlararo munosabatlar F.de Sossyur va uning izdoshlari lisoniy paradigma a'zolari oldiga qo'yadigan munosabat turlarining barcha asosiy ko'rinishlari talablariga javob beradi va shu asosda graduonimik lug'aviy qatorlarni lisoniy paradigmalarining bir ko'rinishi sifatida ajratishga to'la-to'kis asoslar mavjud.

SHu bilan birga faqat lug'aviy paradigmalariga xos bo'lgan xususiyatlar ham mavjud: a) lug'aviy paradigmalarining bitta yetakchi so'z (dominanta) atrofida birlashishi; b) lug'aviy paradigmaning ochiqqligi; v) lug'aviy paradigmaning boshqa kattaroq paradigmalar tarkibiga yetakchi so'zi bilangina kirishi; g) lug'aviy paradigmadagi qurshov so'zlarining osonlikcha o'zgarishi kabilar:

1. Lug'aviy paradigmaning bir yetakchi so'z (dominanta) atrofida birlashishi. Sistemaviy tilshunoslikda lug'aviy paradigmalarni ajratishda yetakchi so'z

(dominanta yoki neytral soʻz) katta ahamiyat kasb etadi. Lugʻaviy paradigmada yetakchi soʻz shu lugʻaviy mikrosistemaning markazi, yadrosini tashkil etadi. Graduonimik lugʻaviy paradigma ham yetakchi soʻz (dominanta) atrofida birlashadi. Yuqoridagi misolimizda yetakchi leksema sifatida "e sh i k" NBsi ajratib koʻradi. SHuning uchun "darcha" va "darvoza" NBlarining maʼnosi eshik NBiga nisbatan ochiladi. Bunda qurshov soʻzlar maʼnosini yetakchi NB maʼnosini murakkablashtirish orqali quyidagicha sharhlash mumkin: darcha - e sh i k + kichikli darvoza = esh i k + kattalik qopqa darvoza eskilik buyogʻiga egalik kabilar.

2. Lugʻaviy paradigmaning ochiqligi. Graduonimik lugʻaviy qatorlarda birlashadigan NBlar miqdori har bir shaxs uchun nisbatan xususiy boʻlib, shaxsning til bilimi, kasb-kori, ijtimoiy faoliyati bilan bogʻliqdir. Har bir graduonimik lugʻaviy qator tarkibiga kiruvchi NBlar miqdori oʻzgarib turadi. Masalan, havo oqimining koʻchayib borishi semasiga koʻra quyidagi NBlar bir graduonimik qatorni tashkil etadi: yelvizak —shabada - shamol - buron - dovul - tufon. Bu graduonimik qator yaqinda Indoneziyada yuz bergan ofat tufayli tsunami NBi bilan kengaydi, chunki tsunami "dengiz osti suv osti vulqoni, toʻfoni" degan maʼnoni ifodalaydi: Indoneziyada yuz bergan tabiiy ofat - tsunamidan zarar koʻrganlar soni yuz mingdan oshib ketdi kabilar. Yoki biologik holat yoki belgi semasida "odam, inson" NBlari quyidagi murakkab graduonimik qatorni hosil qiladi:



Bu graduonimik qator keyingi yillarda faxriylar, piru-badavlat onaxonlar, otaxonlar kabi NBlar hisobiga kengaydi.

3. Lug'aviy paradigmadan faqat yetakchi so'zning shu paradigmadan kattaroq lisoniy butunliklar tarkibiga kirishi. LMGdagi har bir giponim (uy, kulba, xona kabi) o'z graduonimik qatoriga ega bo'lishi mumkin, lekin bu NBlar giponimik LMG tarkibiga bevosita kirmaydi. Masalan, darcha -eshik - darvoza - qoqa NBlar qatoridan "uy" (yashashga mo'ljallab to'silgan muhit) nartonomik (butun-bo'lak) LMG tarkibiga faqat eshik NBlar kiradi, xolos. Uy leksemasi mansub partonomik qatorni sanar ekanmiz, quyidagi NBlarni inobatga olamiz:

tom→

shift→

devor → uy

eshik→

deraza→

Bundan ko'rinadiki, darcha - eshik darvoza — qoqa NBlaridan -etakchi NB -eshik leksemasigina bu graduonimik qatordan kattaroq bo'lgan partonomik LMG tarkibiga kiradi.

4. Qurshov so'zlarining nisbatan barqarorligi. "Bilim berish saviyasi" darajasiga ko'ra bir graduonimik qatorni tashkil qilgan etuvchi - katta o'qituvchi - dotsent – professor NBlarini tahlil qiladigan bo'lsak dotsent professor NBlari hamma ham tanish zmas. Bu graduonimik qatorga bulardan tashqari yana mu allim - ustoz — domla kabi yangi NBlar ko'shish, mudarris singari ba'zi NBlar tushirilishi mumkin. Bularning barchasi graduonimik lug'aviy qatordagi qurshov so'zlarining barqarorligidan dalolat beradi. Demak har qanday lisoniy paradigma uchun xos bo'lgan to'rttala xususiyat ham, lug'aviy paradigmalar uchun xos bo'lgan to'rt qo'shimcha xislat ham graduonimik lug'aviy qatorlar uchun xarakterlidir. Bularning barchasi graduonimik munosabatlar lug'aviy paradigmalarining alohida bir ko'rinishi – lug'aviy paradigmalar hosil qiladi, degan xulosa chiqarishga to'la asos bo'ladi. Bu esa tilshunoslikda shu kungacha ajratib kelingan ma'noviy lug'aviy

paradigmalarining sinonimik giponimik antonimik kabi turlari yana bir ko'rinish – graduonimik paradigmalar bilan boyitish lozim, degan xulosaga keladi.

3.4. Holat bildiruvchi sifat leksemalarning ma'no tarkibi masalalari

Har qanday tilda bo'lganidek o'zbek tilida ham har bir so'z boshqa so'zlarga nisbatan alohida, mustaqil birlik sifatida namoyon bo'ladi. Tilning lug'at boyligini sistema, tizim sifatida o'rganish esa so'zni alohida birlik sifatida emas, balki butunning o'zaro bog'liq, ajralmas qismi sifatida o'rganishni talab qiladi.

Semasiologik izlanishlarda so'zlar muayyan leksik-semantik guruh (LSG)larga ajratiladi. Bunda so'zlarning ma'nosi bilan bir qatorda ularning struktural-etimologik xususiyatlari, boshqa so'zlar bilan birikuvchanlik imkoniyatlari ham inobatga olinadi.

Har bir LSG tarkibiga kiruvchi so'zlar bir markaziy so'z atrofiga birlashadi. Boshqa so'zlarda esa ana shu markaziy (dominant) so'z ma'nosi yanada konkretlashadi, uning differentsial va integral semalariga aniqliklar kiritiladi. O'zbek tilshunosligida so'zlarni ana shunday usulda komponent (uzviy) tahlil qilishga SH. Rahmatullaev, I.Qo'chqorto'ev, R.Rasulov, I.Abdurahmonov, R.Yunusov, M.Narzieva, M.Nishonova kabi qator olimlar munosib hissa qo'shganlar.

Ma'lumki, tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan har xil o'zgarishlar, hayotdagi turli xil insoniy munosabatlar kishi xarakteriga, uning ruhiyatiga ta'sir etmay qolmaydi. Ana shu tashqi ta'sir kishi ruhiyatida har xil holatning vujudga kelishi uchun zamin hozirlaydi. Inson ruhiyati juda serqirra bo'lib, u shodlik g'azab, xafalik loqaydlik kabi turli holatlar majmui sanaladi. SHundan kelib chiqib, tilimizdagi ruhiy holat ifodalovchi sifat leksemalarni (SL) bir qator turlarga ajratish mumkin. Mualliflar hamkorligida yaratilgan «O'zbek tilining nazariy grammatikasi» (morfologiya) nomli asarida holat bildiruvchi sifat leksemalarda inson, hayvon va jonsiz predmetlarga xos quyidagi belgilar, holatlar mavjudligini ta'kidlaydi: a) tabiiy holat belgisi: chaqqon, mo'min, go'zal dadil ;

b) jismoniy holat belgisi: ko'chli, paxlavon, chapdast, alpqomat, nimjon; v) ruhiy holat belgisi: xursand, tajang g'amgin, alamdiya, qo'rqmas; g) iqtisodiy holat belgisi: badavlat, boy, qashshoq, gado, kambag'al; d) tozalik belgisi: ozoda sof isqirt, musaffo; ye) harorat belgisi: issiq, sovuq, salqin, iliq, qaynoq yo) tinch-notinchlik belgisi: sokin, tinch osuda, osoyishta, bezovta; j) pishqlik belgisi: xom, go'l, pishiq, puxta, omonat; 3) sirtqi qism belgisi: silliq, g'adir-budir, g'ijim, tekis, tep-tekis.

O'zbek tilidagi holat bildiruvchi SLlarning ma'no tarkibini quyidagicha 9 LSGga ajratish mumkin:

1. Xursandlik holatini ifodalovchi sifat leksemalar. Bunday sifatlar kishi ruhiyatidagi davriy yoki oniy lahzalarni, muayyan bir harakat yoki holatdan mamnunlikni turli shakllarda aks ettiradi. Bunday sifatlarning barchasi semantik jihatdan bir nuqtaga LSG ga birlashadi: xursand, mamnun, xushxol, xushnud, xurram quvnoq, shodmon, shod, xushchaqchaq, masrur kabi SLlar shular jumlasidandir. Xursandlik ifodalovchi bunday SLlar orasida «xursand» leksemasi uslubiy jihatdan betaraf bo'lib, dominant leksema sanaladi, uning dominantlik xususiyati «O'zbek tilida sinonimlarining izohli lug'ati»da ham ta'kidlab ko'rsatilgan. Bu leksema og'zaki va yozma nutqda, adabiy tilning turli vazifaviy uslublarida keng qo'llanadi: *Mendan xursand hamma ko'ngildan, / Agronom qiz, deydi barchasi (U.Nosir); Hamma xursand negadir / Xursand bo'lmadi Qodir (E.Vohidov).*

R.Jabborova va S.Fiyosov o'z ishlarida xursandlik holatini ifodalovchi xursand va shod leksemalarining semalar tarkibini quyidagicha belgilagan edi:

Xursand - baho + ijobiy + jonli predmet nomlari bilan birikadi+ emotsionallik anglatadi + belgi darajasini ifodalashi neytral+belgi darajasini katta (kuchaytirib) ifodalashi jihatidan neytral + belgi darajasini eng katta (kuchaytirib) ifodalashi jihatdan neytral stilistik buyog'i jihatdan neytral;

SHod — baho + ijobiy + jonli predmet nomlari bilan birikadi + jonsiz predmet nomlari bilan birikish xususiyati ham bor + emotsionallik anglatadi + belgi darajasini katta (kuchaytirib) ifodalaydi + ekspressiv.

Umuman, «ruhiy holat» deyishning o'zidan bunday sifatlar «kishiga atalgan» belgisiga, xususiyatiga ega ekanligi tushuniladi. Agar «ruhiy holat» belgisi konkretlashtirilsa, «kayfiyat» semasi haqida gapirish mumkin bo'ladi. Kishidagi kayfiyat esa, odatda, emotsiya bilan belgilanadi. Kishi organizmining turli-tuman omillarga emotsional reaksiyasi ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin. SHundan kelib chiqib, ruhiy holat ifodalovchi SLlarning semantik strukturasida tahlilida «emotsiyaning ijobiy-salbiyligi» semasini ham ajratish zarur. Emotsional reaksiya kishi organizmi holati bilan bog'liq holda chuqur yoki yengil-elpi bo'lishi ham mumkin. SHunga asoslanib, SLlar tahlilida «emotsiyaning kuchli-kuchsiz kechishi» semasi ham ajratiladi.

Emotsiya, odatda, inson organizmida uzoq davom etmaydi, ana shu asosda biz o'rganayotgan SLlar semantik strukturasida «ma'lum muddat davom etish» semasi ham ajratiladi.

Poetik nutqda kishining xursandlik ruhiy holatini ifodalashda xushnud, chog' so'zlari ham faol qo'llaniladi. *Barcha xushnud, dillar chin edi / Tovus kabi aylab xiromon / Raqsga tushdi bir go'zal jonon* (E.Vohidov); *Lekin qarshingizda fojia emas / Xushnud odamlarning surati turar* (A.Oripov); *Barcha xurram, faqat unda g'am / Oppoq ro'mol boshida/ Suvga chiqdi bir dilrabo qiz* (E.Vohidov).

Shodmon, xushchaqchaq so'zlari ham xursandlik holatini ifodalashga xizmat qiladi: *Sevilgan qalb - Yog'duli osmonga o'xshaydi / Osmon kabi /navolar ichra /SHodmon yashaydi* (M.Ali);

Sen dilbar qiz eding, hushchaqchaq lobar / Topdingmi munosib bir yor? (M.Ali).

Poetik usulda nutqda ba'zan xursandlik ruhiy holatini ifodalovchi SLlar faqat kishilarga nisbatan emas, balki predmet va mavhum tushunchalarni ifodalovchi otlarga nisbatan ham qo'llanilishi kuzatiladi: *Qarangki, quyosh shodon va gulgun /Mehnatkash yigitday kulib turibdi* (E.Vohidov); *Bu go'zallik quvnoq hayotni / Qalbing bilan sezasan biroq* (SHukrullo)

Ba'zan poetik nutqda xursandlik ruhiy holati insonga tegishli bo'lgan narsa va predmetlarni sifatlash orqali ham ifodalanadi: *Rubobim tori ikkidur: /Biri quvnoq biri mahzun /Ki baytim satri xushdur: Biri dilxush biri dilxun* (E.Vohidov).

2. Xafalik holatini ifodalovchi sifat leksemalar. Bunday SLlar ham tilimizda keng tarqalgan bo'lib, ular qatoriga g'amgin, dilgir, xafa, xomush, ma'yus, giryon, xunibiyron, diltang kabilar kiradi. Bu LSG tarkibiga kiruvchi leksemalarning qo'llanishida farqli holatlar ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, xafa, g'amgin, xomush, dilgir kabi SLlarning belgini ifodalash darajasi bir xil bo'lsa, xafa, g'amgin, xomush so'zlari kishining yuz-ko'zidan ifodalanib turadigan g'amginlik holatini bildirishga xizmat qiladi, g'ash leksemasi esa insonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari bilan bog'liq holatni aks ettiradi: *Nimadan ko'ngling g'ash, nimada darding / Xoy kichik qishloqning jajji bolasi?* (M.Ali).

Badiiy uslubda qo'llanuvchi, kishining ruhiy holatini yuksak ko'tarinki shaklda ifodalashga xizmat qiladigan g'amnok leksemasi ham xafalikni ifodalovchi LSG tarkibiga kiradi: *Yig'la... Duv to'kilsin vatanning uchun /G'amnok jodu ko'zlaringdan nur* (SHuhrat); *Kurtakni uyg'otib so'yladi g'amnok... /Gullar g'unchasini etdi chok- chok* (Zulfiya).

SHu LSG tarkibiga kiruvchi *ma'yus* so'zida belgi darajasi ancha kuchli bo'lib, u insonning umidsizlikka tushgan, tushkun holatini ifodalaydi: *Hasharchi qo'shni qiz uning sevgani/ Ma'yus bosar edi orqamdan odim* (F.Fulom); *Zamira hali ham devor zihidagi kresloda o'tiribdi, ko'zlari bir nuqtaga tikilgan... uning qiyofasi hozir ochilga beozor va ma'yus ko'rinadi.* (P.Qodirov. Uch ildiz). Bu leksema ayrim hollarda

mavhum tushunchalarga nisbatan ham qo'llanadi: *Oppoq kechalarda murg'ak dil aro / Ro'yobga chiqmog'in kutgan orzular / Butun barg yozdimu yam-yashil va yo /Ma'yus xotiraga aylandi ular?* (M.Ali)

Shu LSG tarkibiga kiruvchi, fors-tojik tilidan o'zlashgan diltang leksemasi insonning xafalik holati juda kuchli darajada ekanligini, yuragi siqilgan holatini bildiradi: *Jo'nar bo'ldim men bundan diltang / Yo'llaringa qarab qolding sen* (A.Oripov).

Ma'lumki, ko'z yoshi to'kish insonning ortiq darajada xafa ekanligini to'g'ridan-to'g'ri ifodalaydigan harakatdir. Insonning ana shu ko'z yoshi to'kish, yig'lash holati tilimizda giryon SLsi orqali ham ifodalanadi. Fors-tojikcha bu leksema biroz eskirgan, arxaik xarakterga ega bo'lib, asosan poetik nutqqa xoslangandir: *Men uning ortidan yugurdim giryon / Nogox ayriliqdan ko'zlarim yoshlab* (A.Oripov).

SHuningdek, poetik nutqda kishining nihoyatda qattiq azob chekkanligi, qattiq ruhiy iztirobda ekanligi *xunibiyron* SLsi orqali ifodalanadi: *Nega qoshlari chimirilgan? /Nega yo'llar u xunibiyron?* (U.Nosir); *Xunibiyron bo'ldi gul SHahlo/ Neki bo'lsa, uni yupatdim* (T. To'la).

3. G'azabli holatni ifodalovchi sifat leksemalar. Bunday LST qatoriga *g'azabnok qinli, darg'azab, g'azabli* kabilar kiradi. Ular orqali insonning tevarakatdagi voqea- hodisalar, predmetlar, odamlar xatti-harakatidan noroziligi tufayli yuzaga kelgan kuchli ruhiy holati ifodalanadi: *Ba'zan yozayotgan o'qlar bemisol / Dudoqlaridan qinli so'zlar uchgan on / O'ylaysan; yo falak bu zoti ayol / Qanday mehribonu, qanday beomon!* (M.Ali).

4. Ijobiylik yoki salbiylik semasi to'g'ridan to'g'ri ifodalanmaydigan holat bildiruvchi sifat leksemalar. tilimizda cog', sergak hushyor, lol, mudroq, loqayd kabi SLlar ham ruhiy holatni ifodalovchi alohida LSG qatorini tashkil etadi. Lekin bu leksemalar anglatgan ma'nosidai salbiylik yoki ijobiylik semasi to'g'ridan-to'g'ri aks etmaydi: *Koyinaman o'zimdan o'zim /Kezinaman gumon*

ichra lol... (M.Ali); Tog'day zil tashvishlar boshga tushsa, rost / Biz faqat boqamiz loqayd-u mudroq (M.Ali).

Bundan ko'rinadiki, badiiy nutq muallifning o'zi bayon qilayotgan fikrlariga, tasvirlanayotgan shaxsga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabati holat bildiruvchi sifat leksemalar yordamida ifodalanadi.

Xullas, tilimizda kishining hayotiy ahvoli, holatini ifodalovchi SLlar bir necha LSG qatorini tashkil etadi va ular fikrni obrazli ifodalash, emotsional-ekspressiv semalarni aks ettirish imkoniyatlari nihoyatda keng ekanligini ko'rsatadi.

Ba'zan bayon qilinayotgan fikrning tinglovchi yoki o'quvchi ruhiyatiga ta'sir etishi, ijobiy yoki salbiy ma'noga ega bo'lishi harorat bildiruvchi SLlarning mavhum otlar bilan yonma-yon qo'llanishi orqali ifodalanadi: *Jilmayib qaramoq qiyinmas axir/Iliq so'z aytishlik aslida, oson (M.Ali).*

Umuman olganda, tilimizda insonga xos xatti-harakat, holatlarning predmet xaroratini bildiruvchi SLlar vositasida ifodalanishi keng tarqalgan. Masalan, *sovuq nigoh sovuq so'z, iliq joziba, sovuq ter, issiq salom, qaynoq dalb, sovuq muomala* kabilar: *Peshonamdan ajab/Sovuq ter keldi (U.Nosir).*

Keltirilgan misolda sovuq leksemasi predmetning haroratini emas, balki insonning ruhiy holatini ifodalash uchun xizmat qilgan.

Predmetning harorati ba'zan xo'l-quruqlikni bildiruvchi SLlar yordamida ham ifodalanadi: *Yayrab-yayrab kuldim, o'ynadim / Namxush-namxush saharlarda men (M..Ali); O'rmon, o'tloqlarning isin keltirgan / Namxush daryo yeli naqadar yumshoq! (SHukrullo).*

Bu o'rinda namxush sifat leksemasi salqin o'rnida kelib, harorat darajasini obrazli tarzda ifodalashga xizmat qilmoqda.

Ba'zan matnga bog'liq holda aslida suvga nisbatan qo'llanuvchi, qo'lni kuydiradigan darajada issiq ma'nosini beruvchi qaynoq SLsi havo haroratini ifodalashga ham xizmat qiladi: *Dimog'imga go'yo Sergeyning / Urar edi qaynoq nafasi (SHukrullo).*

Qaynoq leksemasi suv belgisi sifatida qo'llanganda belgining eng kuchli darajasi tushuniladi. Boshqa predmetdarga nisbatan qo'llanganda esa, bu belgi semasi ancha susayadi: *Qani qo'lingni ber ey qardosh diyor/ O'zbek yigitining qaynoq kafti bu* (A.Oripov).

Keltirilgan misollarda *qaynoq nafas, qaynoq kaft* kabi qo'llanishlarda o'zaro aloqa, semantik bog'lanish mavjud. Quyidagi misollarda esa qaynoq leksemasi butunlay boshqacha ma'no semasiga ega bo'lgan: *Bu kun mardonavor qo'ymoqda qadam / Qaynoq hayot zavqi oldinda hali* (E.Vohidov); *Daladagi bu qaynoq hayot/Havasiga bog'ladi qanot* (H.Olimjon)

5.Kishining hayotiy ahvoli, holatini ifodalovchi sifat leksemalar. Tilimizda kishining yashash darajasi holatini ko'rsatuvchi kambag'al, faqir, qashshoq, bechora, yo'qsil miskin, yetim, mushfiq, musofir, boy, badavlat, davlatmand, zangin kabi bir qator SLLar mavjud. Ma'lumki, kishilarning jamiyat boyligidan oladigan ulushi, yashash uchun zarur bo'lgan noz-ne'matlardan baxramand bo'lish darajasi ularning turmushi har xil bo'lishga olib keladi. Insonning moddiy boyliklardan qanchalik bahramand bo'lishi uning hayotiy ahvolini ko'rsatuvchi asosiy mezon sanaladi. Bu holat kishining hayotiy ahvolini ifodalovchi sifatlar LSGi yordamida ifodalanadi. Ba'zan kishining hayotiy ahvoli to'g'ridan-to'g'ri emas, balki narsa va predmetlarni tasvirlash orqali ham ko'rsatilishi mumkin: *Yurgil erkam! SHahar bozorin/ Noz-ne'matga to'lgani haqi / Noz-ne'matga to'lg'ani haqi / Sen kirganda boy do'konlarshng/ Quchoq ochib turgani haqi* (M.Ali).

Keltirilgan bu misolda shoir boy do'konni tasvirlash orqali kishilarning yashash tarzi juda yaxshi, yuksak darajada ekanligini ta'kidlashga intilgan edi. Ba'zan boylik darajasini ko'rsatuvchi sifat leksemalar muallif istagiga bog'liq holda poetik nutqida tasvirlanayotgan kishiga nisbatan ham qo'llanadi. Masalan, *Bechora / Farib bo'lib / Yakka/ Ul qolgan.... / Qarol yurib / Ko'p ezilan / Sag'ir Yosh umr...* (U.Nosir).

Bundan ko'rinadiki, badiiy nutq muallifning o'zi bayon qilayotgan fikrlariga, tasvirlanayotgan shaxsga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabati holat bildiruvchi sifat leksemalar yordamida ifodalanadi.

6. Predmetning harorat belgisini bildiruvchi sifat leksemalar. Bunday SLlar predmetga nisbatan qo'llanilganda xaroratning uch xil darajasini, ya'ni sovuqlik, iliqlik yoki issiqlikni ifodalashga xizmat qiladi: *Sovuq marmar toshni siypalab silab kezib yurarmanmi yana sarsari?* (M.Ali); *Nasima! Bu kungi issiq non / O, balki to'kilur... o'larman...* (U.Nosir); *Issiq nafas purkar har bir deraza / Ham on qadimgidek qatnov, borar ish* (SHukrullo)

Harorat bildiruvchi SLlar iqlimga, havoga nisbatan qo'llanilganda belgi, harorat semasi aniq ifodalanadi: *SHabnam shovillaydi bog'lar qo'ynida / Salqin tuman ichra bo'zarar tonglar* (A.Oripov); *Bukun derazamni ochdimu yoqar / Yuzimga urildi salqin shabboda..* (E.Vohidov); *Salqin havo asta kuyar lab / Oppoq betlariga ko'chada* (U.Nosir).

7. Tozalik-ifloslik holatlarni ifodalovchi sifat leksemalar.

Tilimizda bir qator SLlar predmetning tozaligi yoki iflosligini ko'rsatishga xizmat qiladi hamda alohida LSG qatorini hosil qiladi, Masalan: *Ko'k chambarga o'ralgan ko'zgu / tiniq qo'llar atrofda guyo* (SHukrullo); *Osmon tiniq, charaqlar yulduz / Oppoq nurda daryo va o'rmon* (SHukrullo),

Keltirilgan har ikkala she'riy parchada ham tozalik, ozodalik ta'kidlash maqsadida tiniq SLsi qo'llangan. Dastlabki misolda tiniq leksemasi suvning tozaligini, uning xar xil iflos narsalardan holi ekanligini ta'kidlashga xizmat qilgan bo'lsa, keyingi misolda bu leksema -osmonning tozaligi, musaffoligi, unda birorta ham bulut yo'qligini tasvirlash uchun vosita bo'lgan.

SHuni ham inobatga olish lozimki, SLlar tozalik-ifloslik semalarini ko'proq ko'chma ma'noda qo'llanish orqali namoyon etadi. Masalan: *G'am soyasi tushdi ishq bilan / Lim-lim to'la pok yuragimda* (E.Vohidov).

8. Predmetning yangilik-eskilik holatlarini ifodalovchi sifat leksemalar. Tilimizda yangi, eski, ko'hna, uvada, juldur kabi bir qator SLlar narsa yoki predmetlarning yangi yoki eskilik holatini bildirishga xizmat qiladi. SHuni

ta'kidlash lozimki, A.Hojiev lug'atida juldur, uvada SLlarining o'zaro ma'nodoshligi ta'kidlangani holda, bu LSG qatoriga kiruvchi churuq leksemasi tushib qolgan. «Izohli lug'at»da esa so'zlashuv tiliga xos churuq SLsining izohida «eski, eski-tuski, juldur, uvada» so'zlaridan foydalanilgan. Keltirilgan LSG qatoriga mansub churuq eski-tuski, uvada, juldur SLlari ko'proq buyumlarga nisbatan qo'llaniladi: *juldur kiyim; eski-tuski latta, uvada ko'rpacha, churuk to'n* kabi. SHu LSG qatoriga kiruvchi *yangi, eski, ko'hna* SLlarining ma'no ko'lam, qo'llanish darajasi yuqoridagilarga qaraganda birmuncha keng va umimiyroqdir. Bu sifat leksemalarini *churuq eski-to'ski, uvada, juldur* leksemalari o'rnida qo'llash har doim ham ko'zlangan natijani beravermaydi. Badiiy nutqda biror predmetning juda eskiligini ta'kidlash maqsadida *juldur* yoki *churuk* SLlari o'rnida *eski* yoki *ko'hna* so'zlarini qo'llash mumkin, lekin bunday qo'llanish o'sha predmetning, masalan kiyimning eskiligi haqida umumiy tasavvur bersa-da, bu kiyimning asosiy belgilari - yirtiq-yamoqligi, ilma-teshikligi haqida aniq ma'lumotlar bera olmaydi. Xuddi ana shunday qo'shimcha semalar *juldur, uvada, churuk* leksemalari orqali reallashadi va shu asosda poetik matn mazmuniga aniqlik kiritiladi. Masalan: *Uvada kamzulda billur tug'maday / Bulutlar ortidan boqadi yulduz* (A.Oripov).

9. Tinch va notinchlik holatlarini ifodalovchi sifat leksemalar. Ma'lumki, adabiy tilda *tinch, notinch, osoyishta, jim, bezovta, betoqat, betinch, halaq besaranjom, alg'ov-dalg'ov, to's-to'polon, sokin, soxit, osuda, bezovta* kabi SLlar tabiat va jamiyatdagi turli xil tinch va notinch holatlarni, predmetlarning holati, insonga xos bo'lgan xar xil ruhiy o'zgarishlarni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: *Go'zal, sokin oqshom cho'kmoqda / Tebranadi yelda chiroqlar / Daraxtzor ham sokin sollanar* (A.Oripov); *Osuda kechalar ko'k toqin o'rab / SHamdek unib turgal milliard yulduzlar* (E.Vohidov); *Kimga zavq bermadi shu tayloqlarning / Farog'at qo'ynida uxlashlari tinch! / Sokin kechalarda oshiq yoshlarning / Ishqiy qo'shiqlari bermasmi sevinch!* (SHukrullo)

Keltirilgan misollarda qo'llanilgan *sokin, osuda, tinch* kabi SLlar «tinchlik», «osoyishtalik», «xotirjamlik» semalarini ifodalashga xizmat qilmoqda. Poetik

nutqida tinch yoki notinch holatlarni bildiruvchi SLlarning qanday semalarni anglatishi ular qo'llanilgan matnning mazmun-mohiyati bilan bevosita bog'liqdir. Masalan: *Balki men shoir bo'lardim / Bo'lsa edi osuda zamon* (E.Vohidov).

Tinch-notinch holatlarni ifodalovchi SLlarning yonma-yon qo'llanilishi ular bildiradigan ma'noni yanada ko'chaytirish uchun xizmat qiladi:- *Xayrli kech - faraxli tuning / Osoyishta« tinch bo'lsan demak* (E.Vohidov).

UMUMIY XULOSALAR

“Soʻz” tilshunoslikning gʻoyat murakkab va qiyin tushunchalaridan biridir.

Soʻz tilning asosiy (tipik) nomlovchi birligidir. Soʻzning boshqa xususiyatlari uning bu belgisiga nisbatan qoʻshimcha sanaladi.

Leksik semantika tilshunoslikning keyingi yillarda taraqqiy etayotgan sohalaridai biridir, uning juda koʻplab sohaları, ichki yoʻnalishlari mavjud boʻlib, semantik tadqiqotlardan xilma-xil metodlardan foydalanish NBlarning barcha xususiyatlarini kengroq tadqiq etishga» imkon beradi.

Til sathlari sistem xarakterga ega boʻlganidek, bu sathlarning birliklari (fonema, tovush, boʻgʻin, oʻzak soʻz, soʻz birikmasi, gan kabi)ni tadqiq etish sohasida sistem yonlashuvga asoslanish, ular orasidagi paradigmatic sintagmatic va ierarxik munosabatlarni, teng qiymatli (enipolent), mutanosib (proportsional), darajali (gradual) va notoʻliq (privativ) ziddiyatlarni oʻrganish, shu asosda ular orasida mavjud oraliq uchinchilarni aniqlash hozirgi zamon tilshunosligining eng dolzarb muammolari qatoriga kiradi.

Har qanday NBning semantik strukturasi leksik maʼno va shu leksik maʼnoga koʻshimcha tarzda semalardan iborat boʻladi. NBning obʼektiv borliqidagi narsa-hodisa, harakat, belgi va shu kabilar haqidagi maʼlumot (tasavvur) beruvchi mazmuni leksik (lugʻaviy) maʼno sanaladi.

Leksik maʼno (semema) strukturasi maʼlum komponentlardan tarkib topadi. Bunday tarkib (qism)lar semalar deb yuritiladi.

Leksik maʼnoga sinxron planda qaralganida ular tarkibini yasash munosabatiga koʻra, obyektini ifoda etishiga koʻra va nutqida reallashuv holatiga koʻra tiplarga ajratib oʻrganish mumkin. Yasash (hosil boʻlish) asosiga koʻra NBlarning leksik maʼnosi asos maʼno va yasama maʼnoga boʻlinadi.

Obyektini qanday tarzda ifodalashiga koʻra NBlarning leksik maʼnosi nomlovchi maʼno va figural maʼnolardan tashkil topadi.

Nutq jarayonida reallashuv holatiga ko'ra NBlarning leksik ma'nosi erkin ma'no va bog'liq ma'nolarga bo'linadi.

NBlar tarkibida uzual va kontekstual (matniy) ma'nolar ham bir-biridan farq qiladi. Bunday ma'no tarkibi (tiplari)ni jiddiy tadqiq etish NBlarning semantik tabiatini keng va chuqur tadqiq etish uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

NBlarning semantik tabiatida differentsial va integral semalar, denotativ va konnotativ semalar ham bir-biridan farq qiladi. SHu bilan birga ayrim NBlar o'zaro gradual munosabatga kirishadi.

Holat bildiruvchi sifatlar o'z semantik tabiatidan kelib chiqib kishining turli xil ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi.

Bunday sifatlar tilimizda alohida-alohida to'qqizta LSGlar qatorini tashkil etadi: a) xursandlik holatini ifodalovchi SLlar; b) xafalik holatini ifodalovchi SLlar; v) g'azabli holatni ifodalovchi SLlar; g) ijobiylik yoki salbiylik semasi to'g'ridan-to'g'ri ifodalanmaydigan holat bildiruvchi SLlar; d) kishining hayotiy ahvoli, holatini ifodalovchi SLlar; ye) predmetning harorat belgisi holatini bildiruvchi SLlar; yo) tozalik-ifloslik holatlarini ifodalovchi SLlar; j) predmetning yangilik- eskilik holatlarini ifodalovchi SLlar; z) tinch-notinchlik holatlarini ifodalovchi SLlar.

Bunday SLlar badiiy nutqida tasvirlanayotgan kishi obrazining xilma-xil kayfiyati (shodligi, quvonchi, g'am-alami kabilar)ni, ichki kechinmalarini, ruhiy iztiroblarini aks ettirish va shu orqali kitobxonda ham turli xil emotsiyalarni hosil qilishda muhim uslubiy vositalardan biri sanaladi.

NBlarning ma'no komponentlari tarkibiga integral,(umumiy) va differentsial (farqalovchi) semalar ham kiradi. Bu semalarning biri yaxlit LSG tarkibiga kiruvchi NBlarni bir umumiy nuqtaga, markazga birlashtirishga xizmat qilsa, keyingisi ular o'rtasidagi xususiy holatlarni ta'kidlab ko'rsatadi. Jumladan, tog'a — jiyan — pochcha; amma - hola — singil - ona NBlarining barchasi uchun umumiy integral sema — "qavm- qarindoshlik" bo'lsa, ularning

birinchi guruhi bilan keyingi guruhi bir-biridan "erkak qarindoshlar" va "ayol qarindoshlar" kabi differentsial semalariga ko'ra o'zaro farqlanadi.

NBlar tarkibida denotativ (atash) va konnotativ (ifoda) semalari ham mavjud. Masalan, denotativ semalar atash semalari bo'lib, borliqdagi narsa-buyum, belgi-xususiyat, miqdor kabilarni atovchi, nomlovchi semalar sanaladi. Masalan, ota, ona, aka, ona NBlarning atash (denotativ) semalarini quyidagicha ajratish mumkin: a) "qarindosh", b) "qon-qarindosh", v) "bevosita mendan katta". Bu uch denotativ sema har to'rttala NB sememalari uchun umumiydir. NBlarning ifoda (konnotativ) semalari deyilganda ularning atash semalaridan tashqari turi qo'shimcha ma'nolarni anglatuvchi semalar inobatga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент: "Шарқ" нашриёти матбаа консерни бош тахририяти, 1999.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. Тошкент: "Маънавият", 2008.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Тошкент: "Ўзбекистон", 2011.
4. Каримов И. А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир.-Т.: "Ўзбекистон", 2000.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

5. Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008.
6. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлигининг ифодаланиши. – Т.: Фан, 1983.
7. Абдурахмонов Ш. Ўзбек бадиий нутқида кулги қўзғатувчи лисоний воситалар: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997.
8. Ахманова О.С. и др. Основы компонентного анализа. М.,1969.
9. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008.
10. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993.
11. Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997.

12. Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004.
13. Мамадалиева М. Номловчи birlikларнинг ички маънолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2000. – №. 6.
14. Максумова С. Метафоралар орқали коннотатив-прагматик маънонинг ҳосил бўлиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2009. – №5.
15. Максумова С. Ундалмалар орқали коннотатив-прагматик маънонинг ҳосил қилиниши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – №1.
16. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент, 1976.
17. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: О`қитувчи, 1995.
18. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006.
19. Собиров А. Ўбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Ма`навият, 2004.
20. Умуркулов Б. Бадий адабиётда сўз. Т.: Фан, 1993.
21. Шомақсудов А., Расулов И., Қо`нғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
22. Қиличев Э., Қиличев Б. Коннотатив ма`но ва унинг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. – №. 6.
23. Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982.
24. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980.
25. Ҳадятуллаев Р. Ўзбек тилида субъектив баҳо формаларининг маънолари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969.
26. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001.

Internet ma'lumotlari

27. www.college.ru
28. www.diser.rsl.ru

- 29. www.referat.ru
- 30. www.referet.uz
- 31. www.pedagog.uz
- 32. www.ziyo.uz
- 33. www.ziyo.edu.ru
- 34. www.ziyo.net.uz